

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix fakulteti

**Arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va
etnografiya kafedrası**

Xasanov Sodiq Siddiqovich

**S.P. TOLSTOVNING QADIMGI XORAZM TARIXINI
YARATISHDA OLIB BORGAN ILMIY TADQIQOT IZLANISHLARI.**

5220200 – Tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar

ass.Abriyev R.B

Rasmiy taqrizchi

Malakaviy bitiruv ishi arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va etnografiya kafedrasining 2011-yil 24-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (№ 14-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

prof. Djurakulov M.D.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011-yil __- iyundagi majlisida himoya qilingan va _____ ball bilan baholangan (№__-son bayonnoma).

YaDAK raisi

t.f.d. MATBOBOYEV B.X.

A’zolari:

S A M A R Q A N D – 2013

Reja:

Kirish.

I Bob. Tolstov S.P. ilmiy me'rosi Qadimgi Xorazm tarixini o'rganishda muhim manba.

1.1 S. P. Tolstov – etnograf, arxeolog va tarixshi olim.

1.2 Qadimgi Xorazm tarixini o'rganishda S.P. Tolstov ilmiy izlanishlari ahamiyati.

1.3 Xorazmdagi jez davriga oid arxeologik madaniyatlar o'rganilishi tarixi.

II Bob. S.P. Tolstovning Qadimgi Xorazm tarixini yaratishda olib borgan ilmiy tadqiqot izlanishlari.

2.1 Qadimgi Xorazm qal'alar tarixini o'rganishda S.P. Tolstov xizmatlari.

2.2 Xorazm atamasi xususida S.P. Tolstov izohi.

2.3 Xorazm hukidida Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi xaqida ba'zi bir mulohazalar

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilyustratsiyalar.

Kirish.

Oʻrta Osiyo, jumladan Oʻzbekiston hududidagi arxeologik tadqiqotlar XX asrning 30 –yillaridan boshlab avj oldi. Bu ishni sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasining Oʻrta Osiyo respublikalaridagi filiallari, Leningrad va Moskvadagi ilmiy tashkilotlar, shuningdek, Moddiy madaniyat tarixi akademiyasi (hozir Rossiya Fanlar akademiyasining arxeologiya instituti), SHarq madaniyati muzeyi kabi tashkilotlar olib borganlar.

1934 yildan boshlab G.V.Grigorev rahbarligida Toshkent atrofi yodgorliklarini va Samarqand yaqinidagi antik davrga oid obidalar qazib oʻrganilindi. Professor M.E.Masson rahbarligida Termiz kompleks arxeologiya ekspeditsiyasi (1936- 1938) va Katta Fargʻona kanali ekspeditsiyasi (1939) ish olib bordi.Olimlardan V.A.SHishkin Buxoro vohasida; A.I.Terenojkin, R. N.Nabiev va boshqalar 1939-1940 yillarda Toshkent yaqinidagi Oqtepa va Toshkent kanali hududida; 1938 yillarda esa akademik A.P.Okladnikov Surxondaryo viloyatining Boysun togʻlarida arxeologik tadqiqotlarni olib bordilar.Mazkur ekspeditsiyalarning samarali amalga oshishida oʻzbek olimlari bilan bir qatorda rus olimlarining xizmatlari ham beqiyosdir.

Xorazmning boy tarixini har tomonlama jiddiy tadqiq qilish 1937 yilda SSSR Fanlar Akademiyasining muhbir aʼzosi S.P.Tolstov tomonidan «Xorazm arxeologiya - etnografiya ekspeditsiyasi»ga asos solinganidan soʻng boshlangan desak hech mubolagʻa boʻlmas.

Xorazm Arxeologiya-Etnografiya Ekspeditsiyasi – Xorazm vohasi arxeologik madaniyati va tarixini (paleolit davridan milodiy 18—19 asrlargacha) tekshirish maqsadida uyushtirilgan ekspeditsiya (1937). Xorazmni arxeologik va etnografik jihatdan oʻrganish 1928—29 yillarda boshlangan. A. YU. YAkubovskiy boshchiligidagi ekspeditsiya xorazmshoxdar poytaxti — Urganch (hozzirgi Koʻhna Urganch) dagi meʼmoriy yodgorliklarni va ilk oʻrta asr shahri Mizdaxqon (Xoʻjayli

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., 1998 й. 7 – б.

yaqinidagi Gavr qal'a)da qazishma ishlari olib borgan. 1934 yilda Toshhovuzdagi Zamaxshar shahar xarobasida M. V. Voevodskiy ekspeditsiyasi faoliyat yurgizgan. 1936 yilda YA. G'ulomov va T. Mirg'iyosovlar Mang'it yaqinida joylashgan miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalariga oid zardushtiylar qabristonini tadqiq etgan. 1937 yilda YA. G'ulomov Guldursun, Norinjon va Pilqal'a shahar xarobalarini tekshirgan. SHu yildan e'tiboran Xorazm Arxeologiya-Etnografiya Ekspeditsiyasi rahbari sifatida — SP.Tolstov ish boshlagan. Ekspeditsiya tarkibi yildan yilga arxeolog, etnograf, antropolog, rassom, me'mor va boshqa mutaxassislar bilan kengaytirilgan. Ekspeditsiya a'zolari Ayoq qal'a, Bozorqal'a, Jonbosqal'a, Tuprokkal'a, Ko'ykirilgan qal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Qizilqal'a, Ko'zaliqir, Teshikqal'a kabi noyob arxeologik yodgorliklarni ilmiy tadqiq etdilar. Qazishlar natijasida turli davrlarga mansub bo'lgan Xorazm vohasining juda ko'p tarixiy yodgorliklari: xarobalar, qal'alar, istehkomlar, kanallar, qadimgi madaniyatni o'rganishga yordam beruvchi yozuvlar, suratlar, uy anjomlari, muhrlar, kumush, mis haykalchalar topildi. Ekspeditsiya Qadimgi Xorazmning boshqa o'lkalar bilan qanday aloqada bo'lganligini o'rgandi. Natijada Xorazm qadimdan Volga Don havzalaridagi skiflar, quyi Sirdaryo atrofidagi saklar, Janubiy Turkmaniston va Buxoro vohasi xalqlari bilan tarixiymadaniy aloqada bo'lganligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ekspeditsiya materiallari asosida muhim monografiyalar, ilmiy maqolalar, tarixiy ocherklar yozilgan. Ilmiy hisobotlar «Труды Хорезмской археологоэтнографической экспедиции» nomi bilan nashr qilinadi. Xorazm Arxeologiya-Etnografiya Ekspeditsiyasi faoliyati tufayli 1marta Xorazmning arxeologiya xaritasi (1956) tuzilgan. Ekspeditsiyaning ilmiy tadqiqotlari butun O'rta Osiyoning qadimgi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi¹.

Mazkur ekspeditsiya tomonidan olib borilgan izlanishlarning natijasi o'laroq quyi Amudaryo va Sirdaryo hududlarida etti mingdan ko'proq beqiyos ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan arxeologik yodgorliklar aniqlanib ulardan eng muhimlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar to'planib chop etildi.

¹ Толстов С. П., Древний Хорезм, М., 1948, с. 22

Mazkur ilmiy ekspeditsiya ba'zi qisqa tanaffuslar bilan bo'lsada qariyb yarim asr mobaynida ilmiy izlanishlar olib bordi. Bunday keng qamrovli ilmiy tadqiqot dasturi bilan ish ko'rgan ilmiy jamoa fan tarixida kam uchraydigan xodisa bo'lib, umuman Markaziy Osiyo xalqlari tarixini chuqur o'rganish bo'yicha yangi davrni boshlab berdi.

Ilmiy ekspeditsiya materiallarini qayta ishlab, muayyan konsepsiya orqali chuqur tahlil qilish natijasida Xorazmning boy tarixi etnografiyasi, tabiati, iqlimi to'g'risida qator muammolar yoritilgan XIV tomlik «Materialy Xorezmskoy arxeologo etnograficheskoy ekspeditsii» nomli yirik tadqiqot xulosalari chop etildi. SHuningdek, mazkur ekspeditsiyaga qatnashgan mashhur tadqiqotchi olimlarning asarlari to'plangan «Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции» nomli 11 tomdan iborat yirik to'plamning chop etilishi O'lka tarixini o'rganishda o'ta muhim manba bo'lib xizmat qilishi, shubhasizdir.

Fanda «Xorazm ekspeditsiyasi» nomi bilan mashhur bo'lgan bu ilmiy jamoaning alohida a'zolari tomonidan chop etilgan asarlarning qimmati ham beqiyosdir. Jumladan, S.P.Tolstov tomonidan yozilgan «Qadimgi Xorazm» («Древний Хорезм»), «Qadimgi Xorazm madaniyatining izlab» («По следам древне - хорезмской цивилизации»), «Qadimgi Oks va YAKsart deltalari bo'ylab» kabi asarlari dunyoning yigirmadan ortiq tillariga tarjima etilib keng o'quvchilar e'tiboriga tushganligining o'ziyoq tadqiqotning xalqaro ahamiyati naqadar yuksak ekanligidan darak beradi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining ellik yillik yubileyidagi nutqida Prezidentimiz Islom Karimov Rossiya olimlarining O'zbekistonga, o'zbek xalqiga zamonaviy fanni bunyod etish borasida ko'rsatgan yordamlarini alohida ta'kidlab o'tsak arziydi, deb ta'kidlagan edi.¹

XX asr boshlarida tarixiy fanlarda “Evromarkazchilik”, ya'ni jahon tamadduni tarqqiyotida SHarq xalqlarining tarixiy – madaniy mohiyatini inkor etish va aksincha, “g'arb madaniyati”ning ahamiyati va rolini mutlaqlashtirishga qaratilgan nazariya vujudga keldi. Burjua adabiyotlarda SHarq xalqlarining

¹ И.Жобборов. Антик маданият ва маънавият хазинаси. Т. “Ўзбекистон”. 1999, 15-бет.

progressiv taraqqiyoti inkor etilib, “SHarq mamlakatlari azaldan sira bartaraf qilib bo‘lmaydigan turg‘unlikka mahkumdir” , degan noxolis davolar keng tarqalgan edi.¹

S.P.Tolstov olim sifatida o‘z tadqiqotlarini birinchi kundan boshlab G‘arbning ana shu davolarini rad qilishni, dalil –ashyolar yordamida ularni fosh qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu juda og‘ir, o‘ta mas‘uliyatli vazifa edi. Bu vazifani hal qilishda Xorazm materiallariga umid bog‘ladim, deya hikoya qiladi olim.² Ko‘hna Xorazm o‘tmish tarixi va madaniyati olim e‘tiborini talabalik davridayoq o‘ziga jalb qilgan edi. 1925 yilda u ilk bor Xorazmga tashrif buyurib, o‘lkaning boy arxeologiyasi va etnografiyasi bilan shug‘ullana boshladi. S.P.Tolstov 1932 – 1934 yillari O‘rta Osiyo tarix –etnografiya ekspeditsiyasiga bosh bo‘lib, Xorazm vohasining Xiva, To‘rtko‘l va CHimboy tumanlarida tadqiqot ishlarini olib boradi. Tadqiqot ishlari kengayib borgach, ekspeditsiya iste’dodli olimlar va shogirdlarni ko‘proq jalb qilishni talab etgan edi. 1936–1940 yillar mobaynida XAEESI Xorazmning ko‘hna qal‘alari Xiva, Xazarasp, Tuproqqal’a, Qo‘yqirilganqal’a, Ayoqqal’a va boshqa qal‘alarda arxeologik tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada Xorazm tarixining shu kungacha fanda ma’lum bo‘lmagan sirli sahifalari ochila boshlandi. Ayniqsa, 1938 yili Xorazmshohlarning diniy sulolaviy markazi Tuproqqal’a (mil.avv. 1 asr – milodiy IV–VI asrlar) va Qo‘yqirilganqal’a (mil.avv. IV asr – milodiy IV asrlar) qazishmalaridan topilgan ashyoviy dalillar jahon ilmiy jamoatchiligini hayratga soldi. Tuproqqal’adan Afrig‘iylarga mansub shohlar saroyi, saroy devorlarida ganch va turli bo‘yoqlarda ishlangan bezaklar, tabiat manzaralari hamda saroy hayotini aks ettiruvchi rasmlar, ro‘zg‘or buyumlari, haykallar, xo‘jalik hujjatlari, yuzga yaqin Xorazm yozuvida bitilgan arxiv, otashparastlik dinining ibodatxonasi va boshqa noyob yodgorliklar topildi. Qo‘yqirilgan qal’adan topilgan yodgorliklar esa bu qal’ani osmon yoritqichlarini o‘rganuvchi qadimgi rasadxona bo‘lganligidan guvohlik beradi. Bularning barchasi tarix fani uchun juda katta kashfiyot edi. SHu bilan ekspeditsiyaning ilmiy tadqiqot

¹ А.Сотликов, О.Абдуллаев. Қомусий илм соҳиби. “Илм сарчашмалари” журналі 2007 й

² С.П.Толстов. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т. “Фан”.1964, 7-бет.

doirasi ham kengaya bordi. Koʻhna Xorazmning deyarlik toʻrt ming yillik tarixini oʻz ichiga olgan eng qadimgi davrlardan to ilk oʻrta asrlargacha bosib oʻtgan tarixi, madaniyati ilm-fani, shaharsozlik sanʼati, meʼmoriy yodgorliklari, urf-odatlarini, diniy marosimlari, tabiati, hayvonot olami, dehqonchilik va bogʻdorchilik madaniyati, irrigatsiya inshootlari va boshqa sohalar kompleks tadqiq qilindi. Ilmiy tadqiqot ishlarida YA.Gʻulomov, YA.A.Rapoport, E.E.Nerazik, M.A.Orlov, T.A.Jdanko, K.A.Zadixina, G.E.Andrionov, G.P.Snesarov kabi mashhur olimlar ishtirok qildi. Ekspeditsiya aʼzolari Xorazm vohasining Dorgʻonatadan to Ustyurt qirlarigacha, Kaspiy dengizi qirgʻoqlaridan to Sirdaryogacha boʻlgan oʻn minglab kvadrat kilometr maydonida qum barxanlari ostida yashirinib yotgan koʻhna qalʼalar va moddiy madaniyat yodgorliklarida keng qamrovli tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Ammo ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan tadqiqot ishlari vaqtincha toʻxtab qoldi. Ekspeditsiya boshligʻi S.P.Tolstov va ekspeditsiyaning boshqa aʼzolari ham jangga otlandilar. Jang maydonida ogʻir yaralangan S.P.Tolstov uzoq davolangandan keyin, harbiy xizmatdan ozod etiladi. SHundan soʻng olim oʻzining kuch gʻayrati va bilim salohiyatini ilmiy tadqiqot ishlariga safarbar qildi. SHu kungacha toʻplagan materiallarini umumlashtirib, ilmiy tahlil qildi va 1946 yilda “Qadimgi Xorazm” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Olimga tarix fanlari doktori ilmiy daraj va professorlik unvoni berildi. 1942 yili urush davrining ogʻir sharoitlariga qaramay Xorazmdagi tadqiqot ishlari yana boshlab yuborildi. XAEESI salkam ellik yilga yaqin vohaning katta maydonlarida tekshirish ishlarini davom qildirdi. Urush yillari va urushdan keyingi murakkab sharoitda mablagʻ va texnika vositalarining etishmasligiga qaramasdan, Qizilqum va Qoraqumning jazirama issigʻi bahor va kuz oylarining izgʻirin shamoli va chang-toʻzonlariga bardosh berib olimlar shijoat va matonat koʻrsatib koʻhna xorazmning qum ostida qolib ketgan yuzlab qalʼalarini har taraflama chuqur oʻrganib, tarix fanini yangi sahifalar bilan boyitdilar. XAEE olimlarining samarali mehnati natijasida shu kungacha oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan oʻnlagan yirik ilmiy

asarlar , risolalar , ilmiy to‘plamlar dunyoga keldi. Ayniqsa, S.P.Tolstov qalamiga mansub bo‘lgan asarlar fan olamida ulkan kashfiyot sifatida baholandi¹. Olimdan bizlarga boy ilmiy meros qoldi, u 300 dan ziyod ilmiy asarlar muallifidir. “Drevniy Xorezm. Опыт istoriko – arxeologicheskix issledovaniy” (“Qadimgi Xorazm”) 1948; “Po sledam drevnoxorezmskoy sivilizatsii” (“Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”) 1948; “Istoriya Amudarya Sarikamish i Uzboy . Istoriya formiravaniya i zasileniya” (“Amudaryo, Sariqamish va Uzboy tarixi”) 1960; “Po drevnim delam Oksa i Yaksarta” (“Oks va Yaksartning qadimgi havzasi bo‘ylab”) 1961; ko‘p jildlik “Narodny mira” (“Jahon xalqlari”) va boshqa asarlari olimga ulkan shuhrat keltirdi.

S.P.Tolstov yana 4 jildlik O‘zbekiston xalqlari tarixini tayyorlashda qatnashdi. Uning bevosita ishtiroki va muharrirligida “Trudy Xorezmskoy ekspeditsii (16 jild), “Materialy Xorezmskoy ekspeditsii” (9 jild), “Nizovya Sirdari v drevnosti ” (5 kitob) va boshqa ilmiy to‘plamlar nashr qilindi. Bu to‘plamlarda Xorazm tarixiga doir qimmatli ilmiy maqolalar e‘lon qilindi. Olimning “Qadimgi Xorazm ” va “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” asarlari birinchi darajali davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Ushbu asarlar jahonning o‘nlab tillariga ingliz, fransuz, nemis, chex, rumin, venger, polyak va urdu tillariga tarjima qilindi. 1964 yili “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” asari o‘zbek tilida nashr etildi. S.P.Tolstov o‘zining yuqoridagi asarlarida Xorazmning ibtidoiy jamoa davridan boshlab to XIII asrgacha bo‘lgan boy tarixi , madaniyati, ilm-fani , dini, e‘tiqodi, hunarmandchilik va sug‘orma dehqonchilik kasblari, tashqi savdo va diplomatik aloqalarni yozma, arxeologik va etnografik materiallar asosida yoritib berishga muvaffaq bo‘ldi. Olim ana shu boy materiallarga asoslanib G‘arb tadqiqotchilarining SHarq xalqlarining azaliy qoloqligi haqidagi soxta ilmdan yiroq tushunchalarini fosh qildi.² SHuningdek, bu asarlar Xorazmni “O‘rta Osiyo Misri”, “O‘rta Osiyo Venetsiyasi sifatida ” olamga tanitdi.³

¹ e-tarix.uz

² А.Сотликов, О.Абдуллаев. Қомусий илм соҳиби .

³ М.Сафарбоев. Хоразм кашшофи. “Мозийдан садо” журнали . 2000 й. 2 сон.

G'arbda urug'-qabilachilik davri hukm surgan bir davrda O'rta Osiyoda, shu jumladan Xorazmda markazlashgan qudratli davlatlar mavjud bo'lganligini, ilmfan va madaniy hayotning yuksak darajada taraqqiy qilganligini ishonchli dalillar asosida isbotlab berdi. Xorazmning qadimdan Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy, Hindiston, Eron, Iroq, Misr, Suriya, shimoliy Kavkaz, O'rta Er dengizi, rus slavyanlari va Volga bo'yi xalqlari bilan savdo va madaniy taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etganligini ko'rsatib berdi. YA'ni "Sivilizatsiyali G'arbni" "varvarlik SHarqqa" qarama qarshi qo'yish uchun qilgan intilishlariga qattiq zarba berildi.

Akademik S.P.Tolstovning alohida e'tiborga molik xizmatlaridan yana biri yozma va arxeologik ma'lumotlarni chuqur o'rganib qadimgi Xorazm elati, xususan o'zbek xalqining kelib chiqishi masalasiga aniqlik kiritdi va mutlaqo yangi fikrlarni bayon qildi. Hali yaqingacha tarix fanida, SHarqdan ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar, ayniqsa XV–XVI asrlarda zamon taqozosi bilan Dashti Qipchoq cho'llaridan ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar o'zbek xalqining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi, degan g'ayriilmiy tushunchalar hukmronlik qilib qilib kelgan edi. S.P.Tolstov esa o'z tadqiqotlari bilan o'zbek xalqining asosini sharqdan ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar emas, balki shu ko'hna maskanda ming yillar davomida o'troq hayot kechirib kelgan erli xalq – xorazmiylar, sug'diylar, toxarlar, baqtriyaliklar hamda Amu va Sirdaryo bo'ylarida azaldan yashab chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan massaget - shaklar tashkil etganligini isbot qildi.¹

Qomusiy bilim egasi bo'lgan S.P.Tolstov o'zining tarix fani sohasida ko'rsatgan buyuk xizmatlari uchun hukumatning yuksak mukofotlariga sazovor bo'ldi. 1953yilda u SSSR FAning muxbir a'zosi, 1956 yilda esa O'zbekiston FAning faxriy akademigi qilib saylandi. 1957 yilda olimga O'zbekiston, Tojikiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi faxriy unvonlari berildi. SHuningdek, S.P.Tolstov Germaniya FAning muxbir a'zosi, Xalqaro

¹ С.П.Толстов. Ўзбекистоннинг қадимги маданияти. Тошкент. "Фан". 1944, 5-бет.

antropologiya va etnografiya jamiyatining vitse prezidenti, Buyuk Britaniya qirolligi antropologiya institutining faxriy a'zosi ham edi.Olim o'zining buyuk xizmatlari uchun hukumatning qator orden va medallariga musharraf bo'lgan.

I Bob. Tolstov S.P. ilmiy me'rosi Qadimgi Xorazm tarixini o'rganishda muhim manba.

1.1 S. P. Tolstov – etnograf, arxeolog va tarixshi olim.

S.P.TOLSTOV. Sergey Pavlovich Tolstov 1907 yil 25 yanvarda Leningrad shahrida tavallud topadi. O'rta maktabni tamomlagach, 1925 -1930 yillarda Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti tarix fakultetining etnografiya bo'limida tahsil oladi va tarix, arxeologiya va etnografiya ilmlarini nihoyatda sinchkovlik bilan o'rganadi. 1932 yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgach, tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ladi. Iste'dodli olim 1939 - 1951 yillarda universitetning etnografiya kafedrasiga rahbarlik qiladi. 1942 -1966 yillarda chorak asrga yaqin SSSR FA ning etnografiya institutida direktorlik lavozimida ishlab institut jamoasining ilmiy yo'nalishiga boshchilik qiladi.

Olimning tarix fani oldidagi unitilmas xizmatlaridan biri jahon ilmiy jamoatchiligini birinchi bo'lib Xorazm sivilizatsiyasi bilan tanishtirdi. Hali o'sha paytlarda O'rta Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston, Xorazmning eng qadimgi va ilk o'rta asrlar davri tarix fanida ochilmagan qo'riq edi. “ 20 –yillar oxiriga kelib o'zim sevgan sohaning ilmiy xodimi bo'lib olgach, mamlakat etnografiyasining nihoyatda ko'p muammolari ichidan o'sha vaqtda juda kam o'rganilingan O'rta Osiyo, sha jumladan, Xorazmning qariyb mutlaqo o'rganilmagan etnografiyasini tanlab oldim. Bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar behisob edi”, -degan edi olim xotiralarida¹.

XX asr boshlarida tarixiy fanlarda “Evromarkazchilik”, ya'ni jahon tamadduni tarqqiyotida SHarq xalqlarining tarixiy – madaniy mohiyatini inkor etish va aksincha, “g'arb madaniyati”ning ahamiyati va rolini mutlaqlashtirishga qaratilgan nazariya vujudga keldi. Burjua adabiyotlarda SHarq xalqlarining progressiv taraqqiyoti inkor etilib, “SHarq mamlakatlari azaldan sira bartaraf qilib

¹ Толстов С. П ., Древний Хорезм, М., 1448; с. 33.

bo‘lmaydigan turg‘unlikka mahkumdir” , degan noxolis davolar keng tarqalgan edi.¹

S.P.Tolstov olim sifatida o‘z tadqiqotlarini birinchi kundan boshlab G‘arbning ana shu davolarini rad qilishni, dalil –ashyolar yordamida ularni fosh qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu juda og‘ir, o‘ta mas‘uliyatli vazifa edi. Bu vazifani hal qilishda Xorazm materiallariga umid bog‘ladim, deya hikoya qiladi olim.² Ko‘hna Xorazm o‘tmish tarixi va madaniyati olim e‘tiborini talabalik davridayoq o‘ziga jalb qilgan edi. 1925 yilda u ilk bor Xorazmga tashrif buyurib, o‘lkaning boy arxeologiyasi va etnografiyasi bilan shug‘ullana boshladi. S.P.Tolstov 1932 – 1934 yillari O‘rta Osiyo tarix –etnografiya ekspeditsiyasiga bosh bo‘lib, Xorazm vohasining Xiva, To‘rtko‘l va CHimboy tumanlarida tadqiqot ishlarini olib boradi. Tadqiqot ishlari kengayib borgach, ekspeditsiya iste’dodli olimlar va shogirdlarni ko‘proq jalb qilishni talab etgan edi. 1936 yili S.P.Tolstovning talabi va tashabbusi bilan SSSR FA ning yanada nufuzliroq ekspeditsiyasi (XAEF) tashkil etiladi. “To 1936 yilga qadar men Xorazm vohasining va unga chegaradosh joylarning hozirgi aholisi hayoti bilan mashg‘ul bo‘lib, asosan, etnografiyaga oid materiallar to‘pladim. 1937 yildan boshlab , garchi Xorazmni va uning tevarak atrofidagi cho‘llarni etnografik jihatdan davom ettirgan bo‘lsamda, tadqiqotlarimda asosiy e‘tibor ajoyib yodgorliklarga qaratila boshlandi. Arxeologiya materiallari ham men kutgan natijalarni berdi”, -deb yozadi olim o‘zining “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” nomli monumental asarida³.

1936–1940yillar mobaynida XAEFsi Xorazmning ko‘hna qal‘alari Xiva, Xazarasp, Tuproqqal’a, Qo‘yqirilganqal’a, Ayoqqal’a va boshqa qal‘alarda arxeologik tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada Xorazm tarixining shu kungacha fanda ma’lum bo‘lmagan sirli sahifalari ochila boshlandi. Ayniqsa, 1938 yili Xorazmshohlarning diniy sulolaviy markazi Tuproqqal’a (mil.avv. 1 asr – milodiy IV–VI asrlar) va Qo‘yqirilganqal’a (mil.avv.IVasr – milodiy IV asrlar)

¹ А.Сотликов, О.Абдуллаев. Комусий илм соҳиби. “Илм сарчашмалари” журнали 2007 й

² С.П.Толстов. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т. “Фан”.1964, 7-бет.

³ С.П.Толстов. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т. “Фан”.1964, 7-бет.

qazishmalaridan topilgan ashyoviy dalillar jahon ilmiy jamoatchiligini hayratga soldi. Tuproqqal'adan Afrig'iylarga mansub shohlar saroyi, saroy devorlarida ganch va turli bo'yoqlarda ishlangan bezaklar, tabiat manzaralari hamda saroy hayotini aks ettiruvchi rasmlar, ro'zg'or buyumlari, haykallar, xo'jalik hujjatlari, yuzga yaqin Xorazm yozuvida bitilgan arxiv, otashparastlik dinining ibodatxonasi va boshqa noyob yodgorliklar topildi. Qo'yqirilgan qal'adan topilgan yodgorliklar esa bu qal'ani osmon yoritqichlarini o'rganuvchi qadimgi rasadxona bo'lganligidan guvohlik beradi. Bularning barchasi tarix fani uchun juda katta kashfiyot edi. SHu bilan ekspeditsiyaning ilmiy tadqiqot doirasi ham kengaya bordi. Ko'hna Xorazmning deyarlik to'rt ming yillik tarixini o'z ichiga olgan eng qadimgi davrlardan to ilk o'rta asrlargacha bosib o'tgan tarixi, madaniyati ilm-fani, shaharsozlik san'ati, me'moriy yodgorliklari, urf-odatlar, diniy marosimlari, tabiati, hayvonot olami, dehqonchilik va bog'dorchilik madaniyati, irrigatsiya inshootlari va boshqa sohalar kompleks tadqiq qilindi. Ilmiy tadqiqot ishlarida YA.G'ulomov, YA.A.Rapoport, E.E.Nerazik, M.A.Orlov, T.A.Jdanko, K.A.Zadixina, G.E.Andrionov, G.P.Snesarov kabi mashhur olimlar ishtirok qildi. Ekspeditsiya a'zolari Xorazm vohasining Dorg'onatadan to Ustyurt qirlarigacha, Kaspiy dengizi qirg'oqlaridan to Sirdaryogacha bo'lgan o'n minglab kvadrat kilometr maydonida qum barxanlari ostida yashirinib yotgan ko'hna qal'alar va moddiy madaniyat yodgorliklarida keng qamrovli tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Ammo ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan tadqiqot ishlari vaqtincha to'xtab qoldi. Ekspeditsiya boshlig'i S.P.Tolstov va ekspeditsiyaning boshqa a'zolari ham jangga otlandilar. Jang maydonida og'ir yaralangan S.P.Tolstov uzoq davolangandan keyin, harbiy xizmatdan ozod etiladi. SHundan so'ng olim o'zining kuch g'ayrati va bilim salohiyatini ilmiy tadqiqot ishlariga safarbar qildi. SHu kungacha to'plagan materiallarini umumlashtirib, ilmiy tahlil qildi va 1946 yilda "Qadimgi Xorazm" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Olimga tarix fanlari doktori ilmiy daraj va professorlik unvoni berildi. 1942 yili urush davrining og'ir sharoitlariga qaramay Xorazmdagi tadqiqot ishlari yana

boshlab yuborildi. XAEESI salkam ellik yilga yaqin vohaning katta maydonlarida tekshirish ishlarini davom qildirdi. Urush yillari va urushdan keyingi murakkab sharoitda mablag‘ va texnika vositalarining etishmasligiga qaramasdan, Qizilqum va Qoraqumning jazirama issig‘i bahor va kuz oylarining izg‘irin shamoli va chang-to‘zonlariga bardosh berib olimlar shijoat va matonat ko‘rsatib ko‘hna xorazmning qum ostida qolib ketgan yuzlab qal’alarini har taraflama chuqur o‘rganib, tarix fanini yangi sahifalar bilan boyitdilar. XAEE olimlarining samarali mehnati natijasida shu kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan o‘nlagan yirik ilmiy asarlar , risolalar , ilmiy to‘plamlar dunyoga keldi. Ayniqsa, S.P.Tolstov qalamiga mansub bo‘lgan asarlar fan olamida ulkan kashfiyot sifatida baholandi. Olimdan bizlarga boy ilmiy meros qoldi, u 300 dan ziyod ilmiy asarlar muallifidir. “Drevniy Xorezm. Opyt istoriko – arxeologicheskix issledovaniy” (“Qadimgi Xorazm”) 1948; “Po sledam drevnoxorezmskoy sivilizatsii” (“Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”) 1948; “Istoriya Amudarya Sarikamish i Uzboy . Istoriya formiravaniya i zasileniya” (“Amudaryo, Sariqamish va Uzboy tarixi”) 1960; “Po drevnim deltam Oksa i YAKsarta” (“Oks va YAKsartning qadimgi havzasi bo‘ylab”) 1961; ko‘p jildlik “Narodы mira” (“Jahon xalqlari”) va boshqa asarlari olimga ulkan shuhrat keltirdi.

S.P.Tolstov yana 4 jildlik O‘zbekiston xalqlari tarixini tayyorlashda qatnashdi. Uning bevosita ishtiroki va muharrirligida “Trudy Xorezmskoy ekspeditsii (16 jild), “Materialы Xorezmskoy ekspeditsii” (9 jild), “Nizovya Sirdari v drevnosti ” (5 kitob) va boshqa ilmiy to‘plamlar nashr qilindi. Bu to‘plamlarda Xorazm tarixiga doir qimmatli ilmiy maqolalar e’lon qilindi. Olimning “Qadimgi Xorazm ” va “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” asarlari birinchi darajali davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Ushbu asarlar jahonning o‘nlab tillariga ingliz, fransuz, nemis, chex, rumin, venger, polyak va urdu tillariga tarjima qilindi. 1964 yili “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” asari o‘zbek tilida nashr etildi. S.P.Tolstov o‘zining yuqoridagi asarlarida Xorazmning ibtidoiy jamoa davridan boshlab to XIII asrgacha bo‘lgan boy tarixi , madaniyati, ilm-fani , dini,

e'tiqodi, hunarmandchilik va sug'orma dehqonchilik kasblari, tashqi savdo va diplomatik aloqalarni yozma, arxeologik va etnografik materiallar asosida yoritib berishga muvaffaq bo'ldi. Olim ana shu boy materiallarga asoslanib G'arb tadqiqotchilarining SHarq xalqlarining azaliy qoloqligi haqidagi soxta ilmdan yiroq tushunchalarini fosh qildi.¹ SHuningdek, bu asarlar Xorazmni "O'rta Osiyo Misri", "O'rta Osiyo Venetsiyasi sifatida" olamga tanitdi.²

G'arbda urug'-qabilachilik davri hukm surgan bir davrda O'rta Osiyoda, shu jumladan Xorazmda markazlashgan qudratli davlatlar mavjud bo'lganligini, ilm-fan va madaniy hayotning yuksak darajada taraqqiy qilganligini ishonchli dalillar asosida isbotlab berdi. Xorazmning qadimdan Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy, Hindiston, Eron, Iroq, Misr, Suriya, shimoliy Kavkaz, O'rta Er dengizi, rus slavyanlari va Volga bo'yi xalqlari bilan savdo va madaniy taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etganligini ko'rsatib berdi. YA'ni "Sivilizatsiyali G'arbni" "varvarlik SHarqqa" qarama qarshi qo'yish uchun qilgan intilishlariga qattiq zarba berildi.

Akademik S.P.Tolstovning alohida e'tiborga molik xizmatlaridan yana biri yozma va arxeologik ma'lumotlarni chuqur o'rganib qadimgi Xorazm elati, xususan o'zbek xalqining kelib chiqishi masalasiga aniqlik kiritdi va mutlaqo yangi fikrlarni bayon qildi. Hali yaqingacha tarix fanida, SHarqdan ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar, ayniqsa XV–XVI asrlarda zamon taqozosi bilan Dashti Qipchoq cho'llaridan ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar o'zbek xalqining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi, degan g'ayriilmiy tushunchalar hukmronlik qilib qilib kelgan edi. S.P.Tolstov esa o'z tadqiqotlari bilan o'zbek xalqining asosini sharqdan ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar emas, balki shu ko'hna maskanda ming yillar davomida o'troq hayot kechirib kelgan erli xalq – xorazmiylar, sug'diylar, toxarlar, baqtriyaliklar hamda Amu va Sirdaryo bo'ylarida

¹ А.Сотликов, О.Абдуллаев. Қомусий илм соҳиби . “Мозийдан садо” журнали . 2000 й 2 сон.

² М.Сафарбоев. Хоразм кашшофи. “Мозийдан садо” журнали . 2000 й 2 сон.

azaldan yashab chorvachilik bilan shugʻullanib kelgan massaget - shaklar tashkil etganligini isbot qildi.¹

Hurmatli olimimiz S.P.Tolstov oʻzining uzoq izlanishlari tufayli eng qadimgi va ilk oʻrta asrlarda Xorazm vohasida, Sariqamish va Uzboy atroflarida, Sirdaryoning quyi qismida 1 mln gektarga yaqin maydonda dehqonchilik qilganligini, bogʻ-rogʻlar bunyod etilganligini koʻrsatib berdi. SHuningdek, ana shu hududlarda suv muammosi ijtimoiy hal qilingan taqdirda 2 -2.5 mln gektar maydonlarda dehqonchilik qilish imkoniyati mavjudligini koʻrsatdi.²

YUzlab koʻhna xarobalarni tekshirib tilga kiritgan Xorazm ekspeditsiyasi rahbari S.P.Tolstov Oʻrta Osiyoda urushdan oldingi va keyingi yillarda oʻtkazilgan tadqiqotlarning natijalarini ham yakunlab, shunday yozgan edi: “Bizning Xorazmda ish olib borgan arxeologiya –etnografiya ekspeditsiyamiz oldida turgan markaziy-ilmiy muammo – islom dinidan avvalgi Oʻrta Osiyoning ijtimoiy tuzumi masalasi edi. Bizning ekspeditsiyalarimiz toʻplagan talay materiallar 1940 yillar oxiriga kelib , bu muammolar hal boʻldi, deb hisoblash imkonini berdi...Endi shu narsani uzil-kesil aniqlangan deb hisoblash mumkinki, Gʻarb va SHarq mamlakatlari singari Oʻrta Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi ham ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik tuzumiga va undan feodalizmga progressiv rivojlanish orqali iborat boʻlgan uzundan uzoq yoʻlni tashkil etadi ”.³

Sergey Pavlovich Tolstov chuqur bilim va noyob isteʼdod egasi boʻlgan. U oʻta talabchan, qatʼiyatli, shogirdlariga juda mehribon ustozlardan edi. U fan doktori va fan nomzodi ilmiy darajalariga ega oʻnlab shogirdlarni tarbiyalab berdi. Taniqli oʻzbek olimi akademik YA.Gʻ.Gʻulomov S. P.Tolstov toʻgʻrisida shunday deb yozgan edi: “Oʻzbekiston , umuman Oʻrta Osiyoning olis oʻtmishini oʻrganish haqida gap ketganda, koʻhna tariximizning etuk bilimdoni, tarixchi, arxeolog va etnograf, SSSR FA muxbir aʼzosi, tarix fanlari doktori, professor Sergey Pavlovich

¹ С.П.Толстов. Ўзбекистоннинг қадимги маданияти. Тошкент. “Фан”. 1944, 5-бет.

² С.П.Толстов. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т. “Фан”. 1964, 430-431-бетлар.

³ Ўша асар.

Tolstov haqida gapirmay bo'lmaydi. Zotan u moziy sirlarini ochishdagi tinimsiz g'ayrat shijoati, O'rta Osiyo tarixini o'rganishdagi salmoqli mavqei bilan butun dunyoda tan olingan ajoyib olimdir. Sergey Pavlovichning fanga baxshida etilgan hayoti ham chinakam ilm ahliga xos va ibrat olsa arzigulik darajada...".¹

Qomusiy bilim egasi bo'lgan S.P.Tolstov o'zining tarix fani sohasida ko'rsatgan buyuk xizmatlari uchun hukumatning yuksak mukofotlariga sazovor bo'ldi. 1953yilda u SSSR FAning muxbir a'zosi, 1956 yilda esa O'zbekiston FAning faxriy akademigi qilib saylandi. 1957 yilda olimga O'zbekiston, Tojikiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi faxriy unvonlari berildi. SHuningdek, S.P.Tolstov Germaniya FAning muxbir a'zosi, Xalqaro antropologiya va etnografiya jamiyatining vitse prezidenti, Buyuk Britaniya qirolligi antropologiya institutining faxriy a'zosi ham edi.Olim o'zining buyuk xizmatlari uchun hukumatning qator orden va medallariga musharraf bo'lgan.

¹ И.Жобборов. Антик маданият ва маънавият хазинаси. Т. "Ўзбекистон".1999.23-бет.

1.2 Qadimgi Xorazm tarixini o'rganishda S.P. Tolstov ilmiy izlanishlari ahamiyati.

Ajoyib qomuschi buyuk olim Abu Rayhon Beruniy aytganidek, "Qo'yilgan maqsadga erishishning eng oson usuli qadimgi xalqlar rivoyatlarini hamda o'tmish avlodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishdir".Haqiqatan ham mustaqillikka erishgan xalqimizning hozirgi murakkab davrda jiddiy muammolarni hal qilishda milliy saviyasini oshirishda va uning tarixiy ongini o'sishi o'tmishni bilish va qadrlash nafaqat ilmiy, balki siyosiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ma'lumki asrlar davomida jahon tarixini boyitib kelgan ko'hna Xorazm son-sanoqsiz qadimiy obidalar xazinasidir.

Har bir xalq o'zining o'tmishini bilishga intiladi, boy tarixiy merosi va unutilmas sanalari, buyuk siymolari va bahodir sarkardalari bilan g'ururlanadi. Qadimiy davrlardan buyon O'rta Osiyoda ro'y bergan turli xil siyosiy va ijtimoiy hodisalar, bir vaqtlar Evropani larzaga keltirgan tarixiy voqealar, o'tmishda ko'p jamiyatlarni tubdan o'zgarishga va har xil elatlarni biriktirib etnik jarayonlarga sabab bo'lgan qudratli davlatlar, noyob moddiy va ma'naviy obidalarni paydo bo'lishi bashariyat madaniyatining ko'hna markazlaridan biri Xorazm bilan bog'liq ekanligi ilmiy jihatdan juda ko'p tarixiy-arxeologik asarlarda isbotlangan.

Xorazmda ibtidoiy jamoa munosabatlaridan sharqona quldorlik tuzumiga o'tish davriga oid anchagina arxeologik yodgorliklar mavjud. Mashhur sharqshunos va tarixchi olim, O'zbekiston fanlar akademiyasi faxriy a'zosi S.P.Tolstov ma'lumotlariga ko'ra, urushdan oldingi to'rt yil ichida uning ekspeditsiyasi a'zolari aniqlangan yodgorliklardan 400 dan ortig'i keyingi yarim asrlik tadqiqotlar tufayli o'rganilib eramizdan avvalgi IV ming yillikdan eramizning XIV-XV asrlargacha Xorazm tarixini yangicha ko'z bilan qarash imkonini yaratgan edi.

Tadqiqotchilarning, ayniqsa professor S.P.Tolstov boshchiligidagi mashhur Xorazm kompleks ekspeditsiyasining ko'p yillik samarali mehnati tufayli mazkur afsonaviy o'lkaning qorong'ulikka aylangan uzoq o'tmishdagi tarixi qaytadan

tiklandi, sirli obidalar xazinasiga aylangan bu kimsasiz cho‘li – biyobon tilga kirib o‘z sirlarini bir-bir ochdi va o‘tmish voqealarni doston-doston qilib aytib berdi. Dastlabki Ma‘mun Akademiyasini kashfiyotchisi ham Sergey Pavlovich edi.

Antik Xorazmning qudratli iqtisodiy va madaniy poydevori zo‘r bo‘lganligi tufayli, shu zamin asosida vujudga kelgan jamiyat va davlatlar qisqa vaqt ichida og‘ir ijtimoiy qiyinchiliklarni engib o‘tdi. Quldorlik jamiyati emirilishi natijasida kuchli ichki larzalardan tushkunlikka uchragan Xorazm IX-XI asrlarda arab xalifaligining inqirozi tufayli ketma-ket O‘rta Osiyo va SHarqiy Eronda paydo bo‘lgan yirik ilk feodal davlatlari – tohiriylar, safforiylar va somoniylar qo‘l ostida bo‘ldi. Bu davrda O‘rta Osiyoning boshqa xududlaridagidek, Xorazmda ham yangi tug‘ilgan ijtimoiy tuzumning taraqqiy qilinishiga to‘sqinlik qilayotgan patriarxal quldorlik an‘analari ancha tez emirila boradi. Bu emirilish yirik feodal aristokratiyasi bilan ozod dehqon ommasi orasidagi shartli tenglik niqobini olib tashlab, ular o‘rtasidagi jiddiy ixtilofni kuchaytirdi.

Ko‘p tarixiy va arxeologik ma‘lumotlarga qaraganda, X asr ohirlarida Xorazm iqtisodiy jihatdan juda tez rivojlana boshlagan edi. Bunga shaharlarning o‘sishi dalil bo‘la oladi. Agar arab tarixchisi Taboriy 712 yilda Xorazmda uchta shahar bo‘lganligini ko‘rsatib o‘tsa, Istohriy X asr boshlarida Xorazmda shaharlarning soni o‘n uchtaga etganligini ko‘rsatadi. 985 yillarda esa, ya‘ni Beruniy 12 yoshga kirganda, Maqdisiyning yozishicha, shaharlar o‘ttiz ikkitaga etadi. Arxeologik qazilma vaqtida topilgan buyumlar – bu davrda hunarmandchilik tez rivojlanganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy yuksalishning muhim ko‘rsatkichi savdo-sotiqning rivojlanishidir. Arab manbalariga qaraganda, Buyuk Ipak Yo‘li chorrahasida joylashgan Xorazm X-XI asrlarda yirik savdo markaziga aylanadi. Xorazm savdogarlari Qozog‘iston va Turkmaniston dashtlarida, shuningdek, Volga bo‘yidagi Xazor va Bulg‘or podsholigi, Old Osiyo mamlakatlari bilan ayirboshlash ishlarini keng tarzda olib borganlar.

Ma‘mun Akademiyasi yaratilgan davrdagi iqtisodiy va ijtimoiy hayotning gurillab o‘sishi yozma manbalardagina emas, shuningdek madaniy yodgorliklarda

ham yorqin ko‘rinadi. Tekshirishlar XI-XII asrlarda Xorazmda temirchilik, kulolchilik, shisha va qurilish kasblarining juda ham taraqqiy qilganligini ko‘rsatadi. Eng muhimi iqtisodiy yuksalish mamlakatda ilm-ma‘rifat va san‘atning gurrkirab o‘shiga sabab bo‘ladi. Dabdabali qurilishlar, ajoyib arxitektura va amaliy san‘at namunalari ayniqsa aniq fanlarning rivojlanganligi tufayli paydo bo‘lganligidan dalolat bergan edi. Buyuk mutaffakirlar – Beruniy va al Xorazmiylar murakkab al-jabr va algaritm, trigonometriya va geometriya, astronomiya, ximiya kabi fanlarga asos solmaganda keyingi ilmiy-texnika taraqqiyoti ham bo‘lmas edi. Nafaqat Markaziy Osiyo xududida balki butun SHarqda ilm-fan rivojining o‘sha davrdagi bosh omili sifatida mashhur mutaffakir allomalarini o‘zida birlashtirgan Ma‘mun Akademiyasi buyuk tarixiy voqea bo‘ldi. Bu davrda yangi qurilish materiallari – pishgan g‘isht ishlatila boshlanadi hamda birinchi marta derazalarga oyna qo‘yiladi. Deraza oynasining qoldiqlari Xorazmda O‘rta Osiyoning boshqa erlariga nisbatan eng avval topilgan. Uylarning ichki arxitekturasini bezashda devorga chizilgan rasmlardan tashqari, o‘yma naqsh berilgan yog‘ochlar ham ishlatiladi. Bu esa Xorazmda tasviriy san‘atning yangi va yuqori bosqichga ko‘tarilganligini ko‘rsatadi.

Bunday obidalaridan ancha to‘la tekshirilgani qadimgi CHarmanyop kanalining etagidagi SHohsanam istehkomidir. YOqut asarlarida ko‘rsatilganidek, uning ilk O‘rta asrdagi Suburni shahri xarobalari bilan bog‘liqligini olimlar isbotlagan. SHaharning nomi ham (suv burni) uni suv etagida o‘rnashganligini ko‘rsatadi.

XI-XII asrlarda Xorazmdagi ko‘p shaharlar Markaziy Osiyoda tipik bo‘lgan O‘rta asr shaharlari qiyofasiga kiradi. O‘sha davrdagi xorazmshohlar poytaxti, beruniyning ona shahri – Kat ham mamlakatning eng yirik savdo va iqtisodiy markazi bo‘lib tanilgan. X asrga oid "Xudud va Olam" nomli asarning noma‘lum muallifi ta‘rificha: "Kat – Xorazmning bosh shahri, g‘uzlar Turkistonga kiriladigan darvoza, turklar, Turkiston, Mavaraunnahr va hazorlar muzofoti mollarining ombori, savdogarlar to‘planadigan joy..." Maqdisiynning yozishicha, uning davrida bulgan Kat shahri Buxorodan katta bo‘lgan: o‘sha davrning juda ko‘p olimlari va

donishmandlari shu erda yashaganlar, ba'zi jihatdan Kat hatto Iroqning eng yirik madaniy markazlaridan ham ustun turgan. Bu shaharda Osiyo va Evropa turli xalqlari, jumladan suriyalik va rumliklarning namoyondalari to'planishgani bejiz bo'lmagan.

X asr ohirlarigacha Xorazm ikki xokimlikdan iborat edi. 995 yilda Gurganch (Ko'hna Urganch) hokimi Kat shahrini egallashi bilan ikki hokimlikka barham beriladi. Ma'mun II davrida Gurganch SHarq mamlakatlaridagi yirik markazlardan biriga aylanadi. Unda savdo, hunarmandchilik, madaniyat va fan rivojlanadi. XI-XII asrlarga kelib Gurganch buyuk Xorazm davlatining go'zal va ajoyib poytaxti bo'lib taniladi.

Dunyoning juda ko'p erlarini aylangan atoqli arab sayyohi va geografi YOqut bu shahar haqida quyidagilarni yozadi: "Men umrimda bu shaharga o'xshash boy va chiroyli shaharni ko'rmaganman... Bitmas-tuganmas boyliklari va poytaxtining kengligi hamda aholisining juda ko'pligi va yaxshiligi bilan Xorazmning bosh shahriga o'xshagan shahar bo'lmasa kerak deb o'ylayman". Istohriyning ta'rificha: "Gurganch Xorazmning eng katta shahri...u o'g'izlar bilan savdo qiladigan joy bo'lib, u erdan Jurjoniya, Xazorlarga, Xurosonga karvonlar jo'naydi". Istohriydan oldinroq Xorazmga kelgan Ibn Batuta: "U (Urganch) aholisining soni ko'pligidan dengiz singari to'lqinlanib turadi", deb yozgan edi.

Urganch xarobalari va bu xarobalar orasida qad ko'targan pishgan g'ishtdan qurilib, koshin bilan mohirona ziynatlangan ajoyib hashamatli, hozirgacha saqlanib kelgan yodgorliklar ko'p vaqtlargacha sayyoh va tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Bu ajoyib obida xarobalari tahminan 400 gektar maydonni egallaydi. SHahar hozirgi Ko'hna Urganch rayonlari markazi bilan Amudaryoning qadimgi o'zani – Daryolik o'rtasida gullab-yashnayotgan dehqon dalalari qurshovida joylashgan.

Mohir tadqiqotchi S.P.Tolstov bepoyon qum daryosi o'rtasida yo'qolib ketgan bu o'lkaga mehr bilan juda qiziqib qarardi. Bu ishda u yolg'iz emasdi. S.Tolstovning shogirdlari anchagina edi. SHular qatorida men ham borligimdan

faxrlanib yuraman. Ustozim menga o'zining murakkab ijod yo'lini hikoya qilib berardi.

S.P.Tolstovning hayot faoliyati M.V.Lomonosov nomli Moskva Davlat universiteti bilan bevosita bog'liq. Bu ilm dargohida ushbu satrlar muallifi ham Sergey Pavlovichdek iste'dodli ustozdan ta'lim olish sharafiga muyassar bo'lgan. O'sha vaqtda S.P.Tolstov etnografiya kafedrasini mudiri lavozimida ishlab, dars ham berar edi.

Dastlabki taassurotlarim universitetning bosh korpusida etakchi olimlar o'qiydigan leksiylar bilan bog'liq. Esimda, bir kuni bizning kurs talabalari uchun etnografiya fanidan leksiya bo'lishi kerak edi. Unga hatto boshqa fakultetlardan ham talabalar kelishgan. Zal liq to'la. O'sha kuni leksiyaning atoqli etnograf va sharqshunos olimi Sergey Pavlovich Tolstov o'qishi kerak edi. Uning Mayin ovozi, sermazmun nutqlari hamon mening qulog'imda yangraydi. O'sha paytlarda nafaqat men, boshqa talabalar ham bunday jo'shqin donishmandning shogirdi bo'lishni orzu qilgan edi.

YUqori kursda o'qiyotgan vaqtimda kafedra mudiri vazifasini ado etayotgan, ayni vaqtda N.N.Mikluxo-Maklay nomli etnografiya instituti direktori, professor S.P.Tolstov meni xorazmlik ekanimni bilib, yo'qatgan ekan. U meni o'zi boshchilik qilayotgan katta ekspeditsiyada xizmat qilishga, tarjimonlik yoki laborantlik vazifasini bajarishga taklif etdi. Men ham bu taklifdan quvonib, "Sergey Pavlovich, iltimos, menga ilmiy rahbar bo'lsangiz, barcha topshiriqlaringizni bajarishga tayyorman", - dedim.

Domlamni roziligini olgach, men mas'uliyatni chuqur sezdim. SHuning uchun ham barcha kuch-g'ayrat va imkoniyatimni ustozning ma'qullagan reja asosida ishlashga safarbar qildim.

Albatta, meni ko'proq domlanning ilmiy izlanishlari, uning O'rta Osiyoga qanday kelib qolganligi, nima uchun SHarq tarixi va etnografiyasini tanlaganligi juda ham qiziqtirar edi. Ustoz o'z xotiralarida shunday yozadi: "Men bolalik chog'larimdayoq, etnografiya bilan – Er kurrasidagi barcha xalqlarning madaniyati va hayotini o'rganuvchi fan bilan shug'ullanishga ahd qildim. Etnografiyaga oid

kitoblarni, ayniqsa XIX asrning mashhur olimi Elize Reklyuning ajoyib asarlarini, xalqlar tomonidan yaratilgan qadimiy ulugʻvor yodgorliklarga oid sahifalarni qunt bilan mutolaa qildim. Qadimiy saroylar va ibodatxonalarning vayronalari hamda boshqa koʻpgina yodgorliklarga bagʻishlangan sahifalar menda zoʻr taassurot qoldirdi. 20-yillar oxirlariga kelib oʻzim sevgan sohaning ilmiy xodimi boʻlib olgach, men etnografiyaning nihoyatda koʻp muammolari ichida oʻsha vaqtda juda kam oʻrganilgan Oʻrta Osiyo etnografiyasini, shu jumladan, Xorazmning qariyb mutlaqo oʻrganilmagan etnografiyasini tanlab oldim. Bu borada qilinishi lozim boʻlgan ishlar behisob edi...

Xorazmga borishimning boshqa boisi ham bor edi. Talabalik yillarimda aksari Volga boʻyi xalqlari etnografiyasi bilan shugʻullandim. Bu xalqlarning moddiy va maʼnaviy madaniyatlarini oʻrganish jarayonida oʻsha vaqtdayoq men bir narsaga eʼtibor bergan edim: bu xalqlar madaniyatining talaygina elementlari qadimgi zamonlarda uning Oʻrta Osiyo bilan aloqalari boʻlganligidan dalolat berardi. Mamlakatimiz xalqlari oʻrtasidagi qadimiy tarixiy aloqalar bizning kunlarimizda xalqlar doʻstligini yanada mustahkamlashga, millatlar oʻrtasidagi oʻzaro ishonchsizlikni batamom tugatishga xizmat qilishi kerak edi. Milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashuv jarayonini oʻrganish uchun shu sohaga oid kitoblarni oʻqib chiqish va muzey eksponatlari bilan tanishishning oʻzi kamlik qilgan boʻlur edi. Eng muhimi, oʻsha joylarga oʻzim borishim, Xorazmning jonli madaniyatini oʻz koʻzim bilan koʻrishim, shundan keyingina muhim tarixiy-madaniy xulosalarga kelishim kerak edi"¹.

S.P.Tolstovning Xorazmga qiziqishiga yana bir muhim sabab bor edi. Uzoq vaqtlar gʻarb fani SHarq tarixini haddan tashqari chalkashtirib, sharq xalqlari progressiv taraqqiyotini inkor etuvchi, SHarq mamlakatlari azaldan sira bartaraf qilib boʻlmaydigan turgʻunlikka mahkumdir, degan soxta daʼvolar tarqatgan edi. S.P.Tolstov sharq xalqlari ham murakkab taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtganliklarini, ular ham ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarni boshidan kechirganliklarini, tarix sharq

¹ Толстов С. П. ., Древний Хорезм, М., 1448; с. 33.

boshqa-yu, g'arb boshqa degan gapni bilmasligini isbotlash uchun zo'r umidlar bilan Xorazmga yo'l oladi.

S.P.Tolstov bu o'lkani sevar, uning tarixiy qimmatini yaxshi tushunar edi. "Qadimgi Xorazm" degan monumental asarida shunday deb yozadi: "Bu ekspeditsiya muallifning kelajakda qiladigan ishlarining yo'nalishini belgilab berdi. Xilma-xil tasodifiy vazifalar uning e'tiborini har qancha chalg'itmasin, bari bir o'ziga xos O'rta Osiyo "Misri"ning tarixi, etnografiyasi va arxeologiyasi bilan qiziqdi¹.

To 1936 yilga qadar men Xorazm vohasining va unga chegaradosh joylarning hozirgi aholisi hayoti bilan mashg'ul bo'lib, asosan, etnografiyaga oid material to'pladim. 1937 yildan boshlab, garchi Xorazmni va uning tevarak-atrofidagi cho'llarni etnografik jihatdan tekshirishni davom ettiravergan bo'lsam-da, tadqiqotlarimda asosiy e'tibor ajoyib arxeologik yodgorliklarga qarata boshladim. Arxeologiya materiallari ham, etnografiya materiallari ham men kutgan natijalarni berdi".

S.P.Tolstov boshchiligida o'sha yillari olib borilgan arxeologiya-etnografiya sohasidagi keng ko'lamdagi ajoyib kashfiyotlar faqat ilmiy-nazariy jihatdangina emas, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ekspeditsiya xodimlari ikkinchi jahon urushiga qadar ilmiy razvedka olib borib, suvsiz Qoraqum va Qizilqum sahrolarida tuyada va piyoda yuzlab kilometr masofani bosib o'tganlar. Bu jasurona yurish natijasida ma'lum bo'lmagan son-sanoqsiz tarixiy yodgorliklarni kashf qilib, ularni tekshirishga kirishgan edi. Ammo tinch hayotimizni buzgan urush tufayli tadqiqotchi-olimlar ilmiy faoliyatlarini vaqtincha to'xtatib, qo'lga qurol olib, aziz Vatanni himoya qilishga otlandilar. Ekspeditsiya boshlig'i otashin vatanparvar S.P.Tolstov ham o'zining grajdanlik burchini ado etib, qonli kurashda bevosita ishtirok qildi.

Urush g'alaba bilan tugab, jahonda tinchlik taronasi yangray boshlagach, arxeologlarimiz ham o'zlarining sahro tomon yurishlarini har qanday sharoitda yura oladigan (vezdexod)lar va aviatsiya yordamida qaytadan boshlab yubordilar.

¹ Толстов С. П., Древний Хорезм, М., 1448; с. 18.

Bir necha otryaddan iborat bu mashhur ekspeditsiya sharqda Sirdaryo va Markaziy Qizilqumdan, g'arbda to Kaspiy dengizining sharqiy va janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan keng hududiga ibtidoiy jamiyatdan boshlab o'rta asrning oxirlarigacha bo'lgan davrlarga oid ko'p yodgorliklarni tekshirdi. SHunday qilib, arxeologlarimiz oldida juda ham boy tuganmas tarixiy durdonalarga ega ochiq muzey paydo bo'lgan edi. Afsonaviy yodgorliklar va obidalar xazinasiga aylangan bu kimsasiz cho'li-biyobon tadqiqotchilarga o'z sirlarini birma-bir ochar va ularga o'tmish voqealaridan so'zlab berardi.

Mazkur ekspeditsiyaning ko'p yillik samarali mehnati tufayli yaratilgan tadqiqotlar bir necha jildlik qimmatbaho ilmiy asarlarni tashkil qiladi. Bu asarlar bepoyon Xorazm vohasida yashovchi xalq va qabilalarning ibtidoiy jamoa tuzumi davridan, antik quldorlik tuzumi osha so'nggi feodalizm davrigacha bo'lgan tarixiy rivojlanish jarayonini kuzatish imkonini beradi. SHu bilan birga bir qator qadimgi sug'oriladigan erlarni keng tadqiq qilish natijasida S.P.Tolstov va uning jasur hamkasblari hozirgi davrda shu rayonlarda qo'riq erlarni o'zlashtirish uchun nihoyatda muhim bo'lgan amaliy xulosalar qilishga muyassar bo'ldilar.

Bu ekspeditsiya Xorazmning eng asosiy ko'p qatlamli obidalarida doimiy qazishma ishlari olib borish bilan birga qadimiy sug'oriladigan rayondagi barcha hududlarda razvedka ishlari, shu jumladan, turli kartografik ishlar ham o'tkazgan edi. Arxeologiya fani tajribasida birinchi marta ekspeditsiya ishida aerofotogrammetrik uslubning qo'llanilishi va tadqiqotlarda atoqli neomorfolog M.S.Kesning ishtirok qilishi tufayli juda ham muhim kashfiyotlar qo'lga kiritilgan edi.

S.P.Tolstov kashfiyotlarining eng muhimi shundan iboratki, u xalqimizning uzoq o'tmishdagi noma'lum butun bir tarixiy davrini to'liq gavdalantirib berdi. Xorazm hududida neolit va bronza davrlariga oid ko'p sonli ibtidoiy makonlarning topilishi arxeologiya fanida yangi sahifa ochdi. Kashf etilgan neolit davr makonlari ichida jahon fani tomonidan tan olingan Kaltaminor madaniyati alohida o'rinni egallaydi. Nisbatan yuqori darajada taraqqiy etgan bronza davriga oid Tozabog'yop madaniyati qazishmalarining Sibir va Qozog'istonda topilgan

Andronov madaniyatiga yaqinligining aniqlanishi ushbu hududlarda yashagan xalqlar ibtidoiy jamoa tuzumi davrlaridan beri o'zaro munosabatda bo'lganligini isbotlab berdi.

Xorazm va boshqa ekspeditsiyalar O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrda o'ziga xos mustaqil madaniyatga ega ekanligini aniq ko'rsatib berdi. Buning natijasida ba'zi bir g'arb olimlarining irqiy nazariya asosida "sivilizatsiyalik G'arbni" "varvarlik SHarqqa" qarama-qarshi qo'yish uchun qilgan intilishlariga yangidan qat'iy zarba berildi. SHu bilan birga ayrim soxta "tarixchi"larning go'yo O'orta Osiyo xalqlari tarixiy xalq "emasligi", ularning madaniyati Eron va boshqa mamlakatlarning madaniyatiga "tobe ekanligi" haqidagi da'volari fosh qilib tashlandi. Ekspeditsiya rad qilib bo'lmaydigan boy dalillar bilan SHarq xalqlari, shu jumladan O'rta Osiyo xalqlari ham xuddi G'arb mamlakatlari xalqlaridek umumiy tarix qonunlari asosida taraqqiy etganligini isbotlab berdi. Xorazm tarixi, uning ajoyib madaniyati o'z hududi bilan cheklanib qolmay, ancha tashqariga chiqqanini, Xorazm bilan O'rta er dengizi bo'yidagi qadimgi davlatlar, SHarqiy Evropa, Hindiston, Xitoy va ayrim Uzoq SHarq mamlakatlari o'rtasidagi qadimiy iqtisodiy va madaniy aloqalar mavjud bo'lganini, hattoki ajdodlarimizning bu mamlakatlarga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazganligini yorqin tasvirlab berdi.

Qadimgi Xorazm dehqonchiligi qishloq xo'jaligi ekinlarining nihoyatda turli-tumanligi bilan ajralib turadi. O'sha davrlarda, qazishmalarda topilgan buyumlarga binoan, har xil don ekinlari ekilgan, bog'dorchilik va polizchilik rivoj topgan, hatto texnika ekinlari - g'o'za, kunjut va boshqalar ekilgan. Vohaning chekka joylarida va Sirdaryo etaklarida faqat arpa, tariq va poliz ekinlari o'stirilgan. Bu erlarning xo'jaligi kompleks xarakterga ega bo'lgan, dehqonchilik bilan chorvachilik qo'shib ketgan, podada qoramol va otlar salmoqli o'rinni egallagan.

O'rta Osiyo xalqlarining qadimdan mustaqil, o'ziga xos yuqori madaniyatga ega bo'lganligini yana bir ko'rsatuvchi dalil - juda ham keng hududlarda kashf etilgan ajoyib arxitektura, san'at va yozuv durdonalaridir. Qadimgi Nisada topilgan fil suyagidan ishlangan riton (qadah idish), Xorazmning ko'p joyida uchraydigan

loydan va sopoldan yasalgan xilma-xil haykallar, Tuproqqal'ada topilgan qadimgi Xorazm yozuvi va boy rasm galereyasi, Tojikistonning Mo'g' tog'ida ochilgan so'g'd davriga oid arxiv, Afrosiyob, Bolaliqtepa va Panjikentda kashf etilgan har xil marosimlarni tasvirllovchi ajoyib rang-barang rasmlar, Ayrtom va Varaxshaning go'zal ganch haykal va bezaklari, butun antik davrda qurilgan hashamatli qal'alarining arxitekturasini - O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi ajdodlari qanchalik yuqori madaniyatga ega bo'lganliklarini yorqin ko'rsatib turibdi.

Xorazm kompleks arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi urushdan keyingi ellik yilga yaqin davr ichida keng miqyosda tadqiqotlar o'tkazishi natijasida qo'lga kiritgan muhim ilmiy kashfiyotlar S.P.Tolstov yaratgan 400 ga yaqin ilmiy asarlarda, ayniqsa, uning "Qadimgi Xorazm", "Oks va YAKsartning qadimgi daltalari bo'ylab" va "Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab" nomli fundamental asarlarida, ko'pildlik ekspeditsiya to'plamlarida o'z ifodasini topgan.

Taniqli o'zbek olimi akademik YA.G'.G'ulomov S.P.Tolstov to'g'risida shunday deb yozgan edi: "O'zbekiston, umuman O'rta Osiyoning olis o'tmishini o'rganish haqida gap ketganda, ko'hna tariximizning etuk bilimdoni, tarixchi, arxeolog va etnograf, SSSR FA muxbir a'zosi, tarix fanlari doktori, professor Sergey Pavlovich Tolstov haqida gapirmay bo'lmaydi. Zotan, u moziy sirlarini ochishdagi tinimsiz g'ayrat-shijoati, O'rta Osiyo tarixini o'rganishdagi salmoqli mavqei bilan... butun dunyoda tan olingan ajoyib olimdir. Sergey Pavlovichning fanga baxshida etilgan hayoti ham chinakam ilm ahliga xos va ibrat olsa arzigulik darajada...

Men ko'rgan yirik ekspeditsiyalar ichida Xorazm ekspeditsiyasidek intizomli, serg'ayrat va harakatchan ekspeditsiya bo'lmagan. U go'yo ilmiy tadqiqot institutiga o'xshardi. SHuncha ilmiy kuchga ega bo'lgan ekspeditsiyada S.P.Tolstovning o'zi eng og'ir ishlarni birinchi bo'lib boshlab berardi"¹.

S.P.Tolstov ekspeditsiyasining yutuqlaridan biri u ko'p qatlamli statsionar qazilmalarni olib borish bilan birga qadimgi sug'oriladigan rayondagi barcha hududlarda aviatsiya yordamida, keng avtomobil marshrutlari tufayli keng

¹ Толстов С. П. ., Древний Хорезм, М., 1448; с. 11.

miqyosdagi kartografik ishlar o'tkazib, noyob arxeologik plan va xaritalar yaratilganligidadir. Aviamarshrutlar bosib o'tgan yo'l taxminan 9.000 km. masofani tashkil qiladi, bir necha ming foto rasmlarni o'rganish orqali noyob arxeologo-topografik materiallar to'plangan, oqibatda 250 dan ortiq qadimiy shahar va qishloqlar kashf etilib, tadqiq qilingan.

YUzlab ko'hna xarobalarni tekshirib tilga kiritgan Xorazm ekspeditsiyasining rahbari S.P.Tolstov O'rta Osiyoda urushdan oldingi va keyingi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalarini ham yakunlab, shunday yozgan edi: "Bizning Xorazmda ish olib borgan arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyamiz oldida ham turgan markaziy ilmiy muammo - islom dinidan avvalgi O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumi masalasi edi. Bizning ekspeditsiyalarimiz to'plagan talay materiallar 1940 yillar oxiriga kelib, bu muammolar hal bo'ldi, deb hisoblash imkonini berdi... Endi shu narsani uzil-kesil aniqlangan deb hisoblash mumkinki., G'arb va SHarq mamlakatlari singari O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi ham ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik tuzumiga va undan feodalizmga progressiv rivojlanish orqali o'tishdan iborat bo'lgan uzundan-uzoq yo'lni tashkil etadi".

1.3 Xorazmdagi jez davriga oid arxeologik madaniyatlar o'rganilishi tarixi.

Tozabog'yop madaniyati - Xorazmdagi jez davriga oid arxeologik madaniyat (milloddan avvalgi 2ming yillik o'rtalari va 2yarmi). Tozabog'yop kanali nomi bilan atalgan. 1938 y. S.P.Tolstov ushbu kanal yaqinidan bu madaniyatga oid manzilgoxlarni topgan. Keyinchalik YA.G'ulomov, M.A.Itina, A.Asqarovlar o'rgangan. Tozabog'yop madaniyati Janubiy Orolbo'yi hududida mahalliy (Suvyorgan madaniyati aholisi) va Janubiy Uraloldidan kelgan (yog'ochband madaniyati va Andronovo madaniyati aholisi) qabilalar aralashuvidan shakllangan. Kelgindi qabilalar ta'siri antropologik tiplarda (masalan, Ko'kcha — 3) va tozabog'yopliklarning moddiy madaniyatida ko'zga tashlanadi. Ular tomi qamish bilan yopilgan kulba va ertulalarda yashaganlar. Tozabog'yop madaniyati Amudaryo deltasi, Quyi Zarafshon va Qayroqqum cho'l zonasida tarqalgan. Bu xududlardan yuzlab makon va 10 ga yaqin qabriston aniqlangan. Asosiy mashg'ulotlari — sug'orma dehqonchilik va xonaki chorvachilik, mehnat va xarbiy qurolaslahalar jezdani, ba'zan toshdan yasalgan. Oybolta quyish uchun tayyorlangan qoliplar topilgan. Tuvaksimon sopol idishlarning tagi yassi, qo'lda yasalgan, o'yma va qolipli geometrik naqsh berilgan. Tozabog'yop madaniyati kishilari urug'chilik jamiyatida yashaganlar, matriarxat an'analari saqlangan¹.

Suvyorgan madaniyati — Xorazm vohasining cho'l zonasiga oid jez davri arxeologik madaniyati (milloddan avvalgi 2ming yillikning 1-yarmi — 1ming yillik boshlari). Amudaryoning qadimgi deltasi o'ng tomondagi cho'l ichiga yorib kirgani uchun Suvyorgan nomi bilan atalgan. Xorazm arxeologiyaetnografiya ekspeditsiyasi (SP. Tolstov, YA. G'ulomov, M. A. Itina va b.) tomonidan tadqiq etilgan (1945— 46). Suvyorgan madaniyati qabilalari, S. P. Tolstovning fikricha, O'rta Osiyoning Janubiy G'arbiy viloyatlaridan Xorazmga kelgan yangi etnik guruh bo'lib, ularning moddiy madaniyati Janubning o'troq dehqonchilik madaniyatiga o'xshash bo'lgan. Suvyorgan madaniyati o'z taraqqiyotida 3

¹ Толстов СП., По древним дельтам Окса и Яксрта, М., 1962.

bosqichni (Qamishli, Bozorqal'a, Kavunchi) bosib o'tgan. Qamishli madaniyati — Suvyorgan va Kaltaminor madaniyatlaridagi bosqichlardan biri. 1954—55 yillarda Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan tekshirilgan. Xorazm vohasida Amudaryoning qadimiy Oqchadaryo deltasi bo'ylab tarqalgan neolit makonlari turkumiga kiradi. Qamishli madaniyatida uyjoy qurish uslubi (ayniqsa, chaylalar) jihatdan *Kaltaminor madaniyati* an'anasi davom ettirilgan. Makonlar ko'chki qum va to'qaylar xalaqit berganligi uchun Oqchadaryo deltasidan olisga tarqalmagan. Kvarsitdan ishlangan tosh qurollar (pichoqsimon parraklar, kamon o'qining bodomsimon shaklda ishlangan uchlari, nayza, pichoq), chaqmoqtosh qurollar va qum aralashtirilgan loydan yasalgan keng qorinli, bo'yni kalta, elkasi bo'rtma gardishli xum va boshqalar sopol buyumlar topilgan. Q.m.ga mansub qabilalar dehqonchilik bilan shug'ullangan¹. Bozorqal'a — Beruniy shahridan 40 km sharqda, Amudaryoning o'ng sohilidagi shaharqal'a xarobasi (milloddan avvalgi 6— 4-asrlar). S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyam topib o'rgangan (1938). SHahar to'g'ri to'rtburchak tarhli binolar paxsa va xom g'ishtdan qurilgan, nishon tuynukli (tirkash) va burjli qo'sh mudofaa devori bilan o'ralgan. Devorlar oralig'idagi yo'lakning eni 3 m. G'ishtlar 40x10 sm hajmda, maxsus tamg'ali bo'lgan. Qal'a (100x120 m) shaharning sharqiy burchagida joylashgan. Bozorqal'a hududidan turar joy va kulolchilik ustaxonalarining qoldiqlari, sirli sopol idishlar, og'zi keng, chambari jimjimador, tagi yassi xum, tosh yorg'uchoqlar, ostodonlar, qadimgi Misr xudosi Bes, odam va hayvonlar haykalchalari, zebziynat buyumlari topilgan².

Suvyorgan madaniyatiga oid sopol idishlar yaxshi pishirilib, sirti kizilga bo'yalgan, sirtiga to'q qizil rang gul solingan sopol parchalari, tosh yorg'uchoklar va dehqonchilik qurollari ham uchraydi. Ammo sopollarning sirti Janubning qadimgi Dehqonchilik qabilalarining sopol buyumlaridan farq qilib, asosan, to'rsimon chizma naqsh va sxematik boshhoq tasviri bilan bezatilgan. Bu topilmalar milloddan avvalgi 2ming yillikning o'rtalarida O'rta Osiyo qabilalarining yirik

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Т., – Т., 48-49 б.

² Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Т., – Т., 466 б

ko'chishlaridan dalolat beradi. Janubiy va Janubi-SHarqiy yo'nalishlardagi 2yirik ko'chish milloddan avvalgi 2ming yillikning oxiri — 1ming yillikning boshlariga to'g'ri keladi. Bu bosqichda Suvyorgan madaniyati jamoalari bo'lgan qabilalar ham faol ishtirok etgan. Arxeologik topilmalar ushbu shim. chorvador qabilalarning O'zboy, Atrek, Tajan, Murg'ob, Amudaryo va Sirdaryo irmoklari bo'ylab harakat qilganliklarini ko'rsatadi. Milloddan avvalgi 1ming yillikning boshlariga kelib, Suvyorgan madaniyati o'rniga Amirobod madaniyati paydo bo'lgan¹.

Amirobod madaniyati - qadimgi Xorazmning so'nggi jez davri madaniyati (milloddan avvalgi 9—8-asrlar). S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Amirobod kanali atrofidan topib tekshirgan (1937— 40). Amirobod madaniyati Suv yorgan madaniyati va tozabog'yop madaniyati uyg'unlashuvi asosida shakllangan. Bu madaniyatni yaratgan xalqlar urug' jamoalariga birlashib, obikor dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Qishda yog'och va qamishdan qurilib, usti loy bilan suvalgan kulba hamda yarim erto'lalarda, yozda engil bostirmalarda yashagan. SHunday kulba va yarim erto'lalarning 15—20 tasi bitta .qishloqni tashkil qilgan. Har bir turar joy sahni 75—110 kv.m bo'lib, uning o'rtasidagi 3x1 m li katta o'choqda doim olov yonib turgan. Taom tayyorlash uchun kichik o'choqlardan foydalanilgan. O'sha davr qoldiqlariga ko'ra, Amudaryodeltasi Aqchadaryo ir-moqlaridan eni 10—15 m, uz. 1—2 km keladigan kanallar qazilgan. Amirobod madaniyatining noyob yodgorliklari YAKkaporson 2 va Qubod 2 yodgorli klaridan sirtiga turli shakllar chizilgan sopol idishlar, shuningdek marjon va chig'anoq shodalari, jezdan yasalgan taqinchoqlar, bigizlar, o'roq hamda o'q uchlari va ularning qoliplari topilgan. Jez ashyolarning ko'plab topilishi o'sha davrda metall quyish texnikasining rivojlanganligini, xalq xo'jaligidan tosh qurollarning mehnat qurollari sifatida siqib chiqarilganligini ko'rsatadi².

¹ Фуломов Я. Ф., Хоразмнинг суғорилиш тарихи, Т., 1959. 49-52 б.

² Ягодин В. Н., Поселение амирабадской культуры Кават 2, Материалы Хорезмской экспедиции, вып. 6, М., 1963.

Tagisken — so‘nggi jez davriga oid arxeologik yodgorlik. 1959 y. Qizilo‘rda (Qozog‘iston) shaharning janubi g‘arbiy, Sirdaryoning qadimgi o‘zani Inqardaryo yaqinidan topilgan. T. 1960—63 yillarda SSSR FA Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi (SP. Tolstov rahbarligida) tadqiqot ishlarini olib borgan. Tadqiqotlar natijasida Tagiskendan 70 dan ziyod mo‘zorgo‘rg‘on aniqlangan. Dafn inshootlari ulkan bo‘lib, ayrimlarining diametri 25 m gacha. Tagisken 2 qismdan: SHimoliy Tagisken va Janubiy Tagiskendan iborat. SHimoliy Tagisken milloddan avvalgi 9—8alarga oid bo‘lib, xom g‘ishtdan qilingan hashamatli dafn inshooti qoldiqlari va uning atrofidan 14 ta har xil hajmdagi qabr topilgan. Ularga qabila boshliqlari, atrofdagi qabrlarga esa, ularning qarindoshlari dafn etilgan. Qabrlardan oltin va jez isirg‘a, marjon, jez mix, o‘roq, paykon va sopol idish (ko‘za, kosa, tuvak)lar topilgan. Janubiy Tagiskendan milloddan avvalgi 7—5-asrlarga oid sak qabilalarining dafn inshootlari ochilgan. Qabrlardan egarjabduq, jez o‘q uchi, yog‘och qinli shamshir, oyna va naqshlangan sopol idishlar, skifcha usulda ishlangan oltin bilaguzuklar, egarjabduklarning jezdan yasalgan buyumlari topilgan. Moddiy madaniyatda so‘nggi jez davriga oid mahalliy madaniyat an‘analari bilan O‘rta Osiyo Janubiy dagi birmuncha yuksak madaniyat Janubiy Ural savromatlari, Qozog‘iston saklari va Janubiy Sibirning skif tipidagi madaniyati bilan aloqador bo‘lgan¹.

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Т., – Т., 336 б.

II Bob. S.P. Tolstovning Qadimgi Xorazm tarixini yaratishda olib borgan ilmiy tadqiqot izlanishlari.

2.1 Qadimgi Xorazm qal'alar tarixini o'rganishda S.P. Tolstov xizmatlari.

Ko'zaliqir — Qadimgi Xorazmda bo'lgan shahar-qal'a xarobasi (milloddan avvalgi 1-ming yillikning 1-yarmi). Jayhun (Amudaryo)ning ko'hna o'zani bo'yida joylashgan. 1939 y. S. P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi topgan, 1950, 1953—54 yillarda qazish ishlari olib borgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida quyidagilar aniqlangan: Ko'zaliqir uchburchak shaklidagi maydon (1000x400) tevaragi bo'ylab paxsadan qurilgan usti yopiq bir necha qator yo'laqlar (umumiy uzunligi 6—7 km) dan iborat turar joylar bo'lib, ularning ichkarisiga yuqoridagi tuynuklar orqali kirishgan. Birinchi qatordagi yo'lakning tashqi devori burjlar bilan mustahkamlangan, yuqori qismida qator shinaklari bo'lgan. Yo'laqlarning ichi aloqida-alohida turar joylarga bo'linmaganligi ularda bir urug' yoxud o'zaro qarindosh urug'lar guruhi yashaganligini ko'rsatadi. Ko'zaliqir aholisi o'sha davrlardagi muttasil bosqinlardan o'zlarini hamda jamoaning asosiy boyligi — chorvani himoya qilish uchungina ana shunday uzundan- uzun, qorongu yo'laklarda yashashga majbur bo'lgan. Ko'zaliqir ko'p jihatdan Avestoda ta'riflangan narga mos keladi. Ko'zaliqirdan skiflarga xos jez kamon o'qlari, kulolchilik dastgohida yasalgan turli sopol idish va buyumlar topilgan. Aholi Ko'zaliqir tashqarisida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan qamda biror xavf-xatartug'ilishi bilan mollarini ichkariga — mazkur uchburchak maydonga xaydab kirgan, o'zlari esa yo'laqlarda turib dushmani daf qilgan¹.

Qal'aliqir — qadimiy Xorazm hududidagi shahar xarobasi (milloddan avvalgi 6—4-asrlar). Toshhovuz viloyati (Turkmaniston) hududida, qadimiy CHirmonyop kanali bo'ylarida joylashgan. 1939 yil S.GT. Tolstov tomonidan tadqiq etilgan. 1950 yilda *Xorazm arxeologi- yaetnografiya ekspeditsiyasi*

¹ Толстов С. П., Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т., 1964. 25 б.

tomonidan qayta tadqiq qilingan. 1953 va 1958 yilda YU.A.Rappoport rahbarligida tekshiruv ishlari olib borilgan. Qal'aliqir 2 ta yirik shahar xarobasi Qal'aliqir I va Qal'aliqir II dan iborat. Qal'aliqir I to'g'ri to'rtburchaksimon shaklda, hajmi 1100x700 m. Qal'aliqir II esa uchburchaksimon (tepalik shakliga ko'ra) bo'lib, maydoni 1000x400 m. Shahar xarobalarining ichki yuzasida madaniy qatlam mutlaqo uchramaydi. Bu joy chorva saqlanadigan qo'ra vazifasini o'tagan. Shahar aholisi mudofaa devoriga joylashgan usti gumbaz bilan yopilgan yo'laksimon tor xonalarda yashaganlar. Qal'aliqirda 2 ta parallel ichki yo'laksimon turar joy xonalari topilgan. Qal'aliqirning boshqa qismida turar joylar aniqlanmagan. Shimoliy Devor oldidagi ko'p xonali bino dafn inshooti — «o'liklar uyi» bo'lib, unda loydan yasalgan katta idishlarda (ossuariylar) mayyitlarning suyaklari saqlangan. Avestoda xuddi Qal'aliqirdagi kabi yo'laksimon turar joylar, kvadrat shakldagi var¹lar haqida aytib o'tilgan².

Qo'yqirilgan qal'a - qadimgi otashparastlar ibodatxonasi va qishloq xarobasi (milloddan avvalgi 4 — mil. 4-a.). To'rtko'l shahridan 22 km shimoliy-sharqda. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (rahbari S.P.Tolstov) ro'yxatga olgan (1938). 1951—57 yillardagi qazishmalarnatijasida qadimgi Xorazmliklarning maqbara-qasri va milloddan avvalgi 4—3-a.larga oid doira shaklidagi ikki qavatli markaziy ibodatxona binosi (diametri 44,4 m, bal. 9,5 m ga yaqin) qazib o'rganilgan. Ibodatxona atrofi 2 qator paxsa va xom g'ishtdan tiklangan mudofaa devori bilan o'ralgan. Qal'a atrofida xandaq (eni 15 m, chuq. 3 m) bo'lib, qadimda suv bilan to'ldirilgan. Qo'yqirilgan qal'a devorida O'rta Osiyo, YAqin va O'rta SHarq quldorlikdavri shaharlar qurilishi uslubiga xos bo'rtib chiqib turgan maxsus burjlar bo'lib, ularda o'q otish uchun nishon tuynuklari bor. Devor bilan markaziy bino oralig'ida xo'jalik inshootlari joylashgan. Ravoqlar uchun trapetsiya shaklidagi maxsus g'isht qo'llanilgan. Qal'aning sharqiy qismida

¹ **ВАР** (суғдча — қўрғон) — қад. Туркистонда мавжуд бўлган истехком тури; тўрт томони мудофаа деворлари б-н ўралган қўрғон. Одатда сайхон ерда қурилиб, асосан чорва моллари ва уй паррандаларини душмандан ҳимоя қилишга мўлжалланган. Авестолати маълумот ларга қўра, Варларнинг ҳар бир томони бир от чопими (3 км) узунлигида бўлган. Дастлабки Варлар тахм.мил. ав. 1-мингйилликнинг 1-ярмида вужудга келган ва кейинчалик катта-кичик қалъали йирик қишлоқ ёки шаҳарларга айланган. Вар сўзи кўпгина қад. шаҳар ва қишлоқпар номлари таркибига кирган. Мас., Далварзин, Варахша, Вардонзе ва б.

² Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Т., 5 – Т., 833-834 б.

darvozasi bo'lib, darvoza oldi labirint shaklida qurilgan. Qo'yqirilgan qal'a markazidagi 2 qavatli binoga maxsus zinapoyalarda chiqilgan. Uyning tomi tekis. 1-qavatda alohida-atohida 8 ta gumbazli xonalar bo'lib, ular ichidan sopoldan yasalgan tobutlar, idish-tovoqlar, har xil rasmlar solingan yog' idish (xum va ko'zacha)lar, naqshinkor suvdonlar topilgan. Topilmalar ichida ma'budlarning terrakota haykalchalari, devorga ishlangan rangli naqshlar, osmon jismlarini kuzatishga mo'ljallangan buyumlar bor. Ostodonlar dafn marosimlaridan, sopoldagi yozuvlar esa qadimgi xorazmliklarning tili va yozuvlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi¹.

Jonbos qal'a, YOnboshqal'a — qadimgi qal'a xarobasi. Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanidagi Sulton Uvays tog'i Janubiy-sharqida joylashgan (milloddan avvalgi 4-asr—milodiy 2- asr). S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tekshirgan (1938-39). Jonbos qal'a maydoni 200x170 m; xom g'isht va paxsadan qilingan qalin va qo'sh devorlar bilan o'ralgan. Devorlarining balandligi 10—11 m, qalinligi 1 — 13 m, ular o'rtasidagi 2,8 m kenglikda yo'lak bo'lib, tashqi devorda shaxmat taxtasi tarzida ikki qator qiya shinaklar bo'lgan. Darvozadan boshlangan yo'l qal'ani teng ikki dahaga ajratgan, yo'l oxirida ot ashparastlar ibodatxonasi — otashkada xarobasi, qal'a ichida 300 dan oshiq uy va kichik xrvlilar, sopol pishiradigan xumdon qazib ochilgan. CHarxda yasalgan juda ko'p sifatli sopol idishlar (katta-kichik ko'za, xum, uzun tutqichli qadah, chuqur kosa, qozon va b.) topilgan. Ayrim ko'zalar bandining yuqori qismi idish chetini tishlab turgan arslon va b. jonzodlar shaklidan iborat. Turli rangdagi katta-kichik marjon-munchoqlar orasida Suriya, Misr, SHim. Qora dengiz bo'yi shaharlaridan keltirilganlari ham uchraydi. Jonbos qal'a milodiy 2-asrda xarobaga aylangan.

Jonbos qal'a makoni - Jonbos qal'at Janubiydagi past-tekislik va taqirliklarning chegarasi bo'ylab joylashgan neolit davriga oid 18 makon (milloddan avvalgi 4—3 ming yillik). 1938— 40 va 1945 yillarda S. P. Tolstov

¹ Кой-Крылган-кала — памятник куль-турм древнего Хорезма IV в. До н.э. — IV в.н.э. (отв. ред. .П.Толстов, Б.И.Вайнберг), М , 1967.

rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi o'rgangan. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar baliqchilik va ovchilik bilan shug'ullangan aholining hayoti haqida ma'lumot beradi. Jonbos qal'a makonida yashagan xalqlar yaratgan yodgorliklar tarixda Kaltaminor madaniyati deb yuritiladi.

Bozorqal'a — Beruniy sh.dan 40 km sharkda, Amudaryoning o'ng sohilidagi shaharqal'a xarobasi (milloddan avvalgi 6— 4-asrlar). S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyam topib o'rgangan (1938). SHahar to'g'ri to'rtburchak tarhli; binolar paxsa va xom g'ishtdan qurilgan, nishon tuynukli (tirkash) va burjli qo'sh mudofaa devori bilan o'ralgan. Devorlar oralig'idagi yo'lakning eni 3 m. G'ishtlar 40x10 sm hajmda, maxsus tamg'ali bo'lgan. Qal'a (100x120 m) shaharning sharqiy burchagida joylashgan. Bozorqal'a hududidan turar joy va kulolchilik ustaxonalarining qoldiqlari, sirli sopol idishlar, og'zi keng, chambari jimjimador, tagi yassi xum, tosh yorg'uchoqlar, ostodonlar, qadimgi Misr xudosi Bes, odam va hayvonlar haykalchalari, zebziynat buyumlari topilgan¹.

Ayoz qal'a — milodiy 2—4-asrlarga oid uchta qal'a xarobasidan iborat arxeologik yodgorliklar majmuasi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida joylashgan. Ayoz qal'ani Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi topib (1937), unda arxeologik qazishmalar olib bordi. Bu majmuadagi uchinchi qal'a mufassalroq o'rganildi. Uning sahni 260x180 m bo'lib, hovli va 40 xonali binodan iborat. Xonalarining umumiy mayd. 2400 m. Xona devorlari to'rt burchakli xom g'ishtdan terilgan. Ayoz qal'a majmuasida, asosan Kushon podsholigi davriga doir sopol, mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynatlar va tangalar, jumladan, Kanishka pullari topildi. Ayoz qal'a o'z davrida Xorazmning shimoliy-sharqiy chegarasida mustahkam istehkom vazifasini o'tagan².

Qo'rg'oshinqal'a - qadimgi shahar xarobasi (mil. 1—4-a.). To'rtqo'l shahridan 44 km shimoli-sharqda. 1938 yilda S.P. Tolstov va YA.G'ulomovlar tomonidan ro'yxatga olingan. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Т., 5 – Т., 466 б.

² Толстов С. П., По следам древнехорезмийской цивилизации, М., 1948.

tomonidan tekshirilgan. Qo'rg'oshinqal'aning qum ostida qolib ketgan, to'g'ri burchakli devor qoldiqlari saqtangan. Mudofaa devorida bo'rtib chiqqan 15 tacha burjlar bor. Burj va devorlarda dushmanga o'q otish uchun maxsus nishon tuynuklari va devorda jangchilar harakati uchun maxsus yo'lak qoddirilgan. Qo'rg'oshinqal'adan uy-ro'zg'or buyumlari, hayvonlar rasmi solingan sopol bo'laklari va mis tanga lar topilgan¹.

Tuproqqal'a — qadimgi shaharqal'a xarobasi; milodiy 3—4-asrlardagi xorazmshohlar qarorgohi. Hozirgi Beruniy shahari atrofidagi hududda joylashgan. 1938—50 yillarda S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya- etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Tuproqqal'a tarhi to'g'ri burchakli (500x350 m) bo'lib, gumbazsimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan Devorning mustahkam janubiy darvozasidan otashkada tomon markaziy ko'cha o'tgan. Ko'ndalang tushgan ko'chalar shaharni 10 ta kvartal (mahalla)ga ajratgan. Tuproqqal'aning madaniy qatlamidan, milod boshlaridan 6-asrgacha bo'lgan davrga oid ashyoviy materiallar chiqqan. Tuproqqal'aning shimoliy - sharqiy qismida maxsus ko'tarma supa (balandligi 14 m, maydoni 80x80 m) ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Unga yondosh qilib balandligi 25 m li 3 ta minorasi bo'lgan ark binosi (maydoni 40x40 m) bunyod etilgan. Arkka sharq tomonidan kutarma yo'lak orqali kirilgan Tuproqqal'ada 100 ga yaqin turar joy, xo'jalik binolari va 8 ta saroy xonalari qazilgan. Xonalar devori bo'rtma naqshlar va relefli rangli haykallar bilan bezatilgan. Tuproqqal'aning sharqiy qismida qurolaslaha ustaxonasi bo'lgan, u erdan temir nayzalar, 3 parrakli o'qlar, saroyning emirilib ketgan 2qavatidagi podsho arxividan esa teri va yog'och taxtachalarga yozilgan 100 dan ortiq hujjat topilgan. Ular qadimgi xorazmiy gilida bitilgan (1—3-asrlar). Tuproqqal'adan jun, shoyi, ip gazlama parchalari, bo'yra, rangli gilam, ko'plab haykal bo'laklari, sopol buyumlar va Kushon tangalari topilgan. Tuproqqal'a

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Т., 5- Т., 446 б.

sugʻorish inshootlarining buzilishi, harbiy toʻqnashuvlar natijasida xarobaga aylangan¹.

Kot, Kat, Kas — Xorazmdagi qadimgi shahar xarobasi. Hozzirgi Beruniy shahridan 2,5 km shimolroqda. Tarixiy manbalarga qaraganda, Kot turli davrlarda turlicha atalgan boʻlib (mas, Kas, Kaj, Fir, Fil) xorazmiy tilida «qishloq» degan maʼnoni anglatgan. YOqut Xomaviyning yozishicha, Kot Jayxun (Amudaryo) ning sharqiy qirgʻogʻida, Jurjoniyan 20 farsax narida boʻlgan. Undagi jome masjidi va xorazmshoh qarorgohi qalʼa ortida joylashgan. Bozor shaharning markazida, Jardurishak soyi boʻyida boʻlgan. Muqaddasiy keltirgan maʼlumotlarga koʻra, Kot shahriston deb ham atalib, u kattaligi jihatidan Nishopurga teng edi. «Hududul-olam» ga koʻra, Kot oʻrta asrdarda turki y elatlarning savdo-sotiq markaziga aylangan. Samʼoniy esa oʻzining «Kitob ul-ansob» asarida Kot rabodi «berun» deb atalganini qayd etgan. Beruniy afrigʻiylar sulolasining asoschisi Afrigʻ shahar ichida 3 qavat devor bilan oʻralgan qasr qurdirganligi, uning devorlari niqoyatda baland boʻlib, taxm. 20 km uzoqlikdan ham koʻrinib turganligi haqida xabar bergan. 10-asrda Kot Xorazm davlatining poytaxti boʻlgan. Keyinchalik Amudaryo shaharni yuvib keta boshlagach, aholi uning sharq tomoniga koʻchib oʻtib, yangi Kot shahrini qurgan. 10- asr oxirlariga kelib zeki shahar, asosan, yuvilib ketib, poytaxt Gurganj (hazzirgi Koʻhna Urganch) ga koʻchirilgan. 995 yil Gurganj hokimi Aboʻlab-bos Maʼmun ibn Muhammad dastlabki xorazmshohlar sulolasini tor-mor keltirgach, Kot oʻzining siyosiy ahamiyatini yoʻqotgan. Ibn Battuta Kotni Xorazm (yaʼni, Gurganj) bilan Buxoro oʻrtasidagi aholi yashaydigan yagona shahar ekanligini eslatib oʻtgan. 14-asrda, Xorazmda mahalliy sulola vujudga kelguniga qadar, Kot Xiva bilan birgalikda CHigʻatoy ulusi tarkibiga kirgan. 1372 yili uni Amir Temur egallagan. 17-asrda yangi Kotni suv bilan taʼminlab turgan yop (yob) ni Amudaryo yuvib ketganligidan Xiva xoni Anoʻshaxon daryoning chap qirgʻogʻida Toza YOrmish yopni kazdirib, uning boʻyida bir qalʼa qurdirgan (1681), soʻng eski shahar aholisi oʻsha erga koʻchib oʻtgan. 19-asr boshida bu

¹ Толстов С. П. ., Древний Хорезм, М., 1448; с. 166. Толстов С. П., Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т., 1964. 55 б.

joyini ham Amudaryo yuvib ketib, yangi Kot aholisi daryoning o'ng sohilidagi SHayx Abbas vali mozori tevaragiga kelib joylashgan. SHundan e'tiboran bu er SHobboz deb atala boshlagan. 1957 y. SHobboz shaharchasiga Beruniy nomi berilgan. 1962 y. dan shu nomli shahar. 1937 y. S. A. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Kot shahar xarobasida tadqiqot ishlari olib borib quyidagilarni aniqladi: u yerda saqlanib qolgan qal'a vayronasining maydoni 220x220 m, burjlar bilan mustaqamlangan. Qal'aning Janubiy-sharqiy burchagidagi ko'shk (54x54 m) esa qalinligi 6 m, balandligi 11 m keladigan devor bilan o'ralgan. Topilgan tangalarning bir tomonida qirra burunli, soqoli siyrak, ko'zlari katta-katta Afrig' tasvirlangan, uning bo'ynida ikki qator marjon shodasi, boshida esa old qismini yarim oy bezatib turgan toj mavjud. Tangalarning ikkinchi tomonida an'anaviy chavandoz tasviri, uning tepasida yunoncha, ostida esa xorazmiy tilida «podshoh Afrig'» deb bitib qo'yilgan. SHayx Abbas vali maqbarasi, minora va pishiq g'ishtdan qurilgan shahar devori qoldiklari hamda qal'a xarobasi hoz.gacha saqlanib qolgan. Xalq mazkur qal'ani «Pil qal'a» («Fil qal'a») deb ataydi¹.

Teshikqal'a — ilk o'rta asrlarga oid yirik qasr xarobasi (milodiy 7—8-asrlar). Koraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tuman idagi Burgutqal'a vohasida joylashgan ilk o'rta asr me'morligi obidasi. Tarhi kvadrat bo'lgan qasr, atrofi qalin paxsa devor bilan o'ralgan. Markazda baland paxsa supa ustida ko'p xonali turar joy minorasi qad ko'targan. Uning devorlariga arkalar bilan bezatilgan yarim ustunlar (kolonnalar) o'rnatilgan. Devor bilan minora oralig'iga turar joy xonalari va xo'jalik ahamiyatidagi binolar qurilgan. Teshikqal'a 1938 y. S. P. Tolstov rahbarlik qilgan arxeologik ekspeditsiya tomonidan tekshirilgan. Mato parchalari, sopol idishlar, bezak buyumlari, tangalar topilgan. Ularni o'rganish afrig'iylar madaniyatini tadqiq etishda asos bo'lib xizmat qilgan².

Toshqal'a — Ko'hna Urganchning qadimgi qismida joylashgan o'rta asr shahar qal'asi xarobasi. S. P. Tolstov tomonidan 1952 y.da o'rganilgan.

¹ Толстов С.П., По следам древнехорезмийской цивилизации, М.—Л., 1948;

² Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Т., 5 – Т., 350 б.

Qazishmalar natijasida shaharning ba'zi joylarida saqlanib qolgan Toshqal'a devorlari (balandligi 5,5 m) aniqlangan. Toshqal'a hududida qulagan qadimgi minora (Pa.)ning poydevori va uning yonidagi o'rta asr masjidining pishiq g'ishtdan ishlangan sahni xamda ustunlarining piramida shaklidagi ostki qismi; karvonsaroy (14-asr.), shuningdek, mahallaning bir nechta ko'chasi va hunarmandlarning g'ishtdan qurilgan uy qoldiqlari ochilgan. Ba'zi uylarda xitoy usulida isitish tizimi borligi aniqlangan. Minora atrofidan qirg'inlardan guvohlik beruvchi qurolyarog' parchalari va odam suyaklari, xonalardan Xitoydan keltirilgan chinni idish parchalari va mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlangan chinni buyumlar topilgan. Toshqal'a uzunligi 1 km, eni undan kamroq bo'lgan noto'g'ri ko'pburchak shaklidagi shahar sifatida baland qal'a devorlari bilan o'ralgan. Qal'a oldidagi chuqur xandaqlar unga to'satdan bosib kirish yo'lini to'sib turgan. T. CHingizxon yurishidan keyin qayta tiklangan va 17-asrda Abulg'oziyxon Ko'hna Urganch aholisini YAngi Urganchga ko'chirguncha gavjum shahar bo'lgan. Ilmiy tdqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Toshqal'aning tashqi davlatlar, asosan, Xitoy bilan savdo aloqasi keng yo'lga qo'yilgan. T. Xorazm poytaxtining o'rta asrlarga oid tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega¹.

¹ Халимов Н., Памятники Ургенча, Ашхабад, 1991. с. 33.

2.2. Xorazm atamasi xususida S.P. Tolstov izohi.

Insoniyat sivilizatsiyasiga o'ziga xos xissa qo'shgan bu voha nomi — Xorazm atamasining kelib chiqishi borasida shu paytgacha turli talqinlar bildirilib kelinmoqda. Akademik S.P.Tolstov yozganidek, «milodning X asriga kelib, bu so'zning ma'nosini xorazmliklarning o'zlari ham unutib yuborganlar»... Aziz ustozning bunday teran va dono xulosasi hozirgi avlod uchun tarixni zamona xizmatiga qo'yishning eng yorqin va ishonchli namunasi ekanligini isbotlab beradi.

Turli avlodga mansub tadqiqotchilar guruhi Xorazm atamasini izohlashga urinib ko'rganlar. Masalan, Klippertva Lerx «Xorazm» nomini «pasttekislik er» deb, Byurnuf, Zaxau, Geyger «unumdor er» deya, YUsti va SHpigel esa, aksincha «yomon, unumsiz er» deb talqin qilishgan. Savelev bo'lsa «Quyosh o'lkasi» sifatidagi talqin bilan bahsu munozaraga qo'shildi¹.

Ma'lumki,forschada Xur, Xurshid quyosh bo'lib, slavyanlarning quyosh xudosi - Xors nomi ham shundan olingandir. Bundan tashqari mazkur so'z turli manbalarda turlicha talaffuzda aytilganiga ham e'tibor qaratmoq kerak. Misol uchun, arab manbalarida Xvarizm, yangi eraning VII asri boshlaridagi Xorazm tangalarida Xvrizm, qadimgi forschada esa Uvarazmis, bobilchada Xumarizma, elamchada Marazmis, «Avesto»da Qayrizao, yunonchada Xoraspiya, lotinchada Xorasmiya tarzida keltiriladi. Behistun va Persepoldagi yozuvlarda esa Uvarazmi, qadimiy Xitoy manbasi bo'lmish «Xan sulolasi tarixi» asarida YUegyan (YUetszyan), «Tan sulolasi tarixi» da «Xosyun», «Xolisimi Boli» tarzida qayd etib o'tilgan. SHuningdek, Xorazm to'g'risida arab sayyohi Muqaddasiy (985 yil) o'zining «Axxam ut taqsim fi ma'rifat ul-aqolim» asarida bir rivoyatni keltirib o'tadi. Unda sharq podshosi qahru g'azabiga duchor bo'lgan 400 kishini kimsasiz uzoq joyga olib borib tashlashni buyurgani aytiladi. Ular shu tariqa hozirgi Kos shahriga (Kos-Kot-SHabboz, hozirgi Qoraqalpog'istondagi Beruniy tumani) keltirilibdi. Oradan vaqt o'tib, podshoh 103 farsahlikdagi Kosga kelib qolganlar holidan xabar olishni topshiribdi. Mulozimlar kelib qarashsa, badarg'a qilinganlar-

¹ e-tarix.uz

hammasi tirik bo'lib, o'zlariga chaylalar qurib, baliq ovlab kun kechirishayotgan ekan. Ularda o'tin, cho'p ko'p ekan. Voqeadan podshohni ogoh qilishsa, u mulozimlaridan so'rabdi:

-Ular go'shtni nima deyisharkan?

-Xor.

-O'tin-cho'pnichi?

-Razm.

SHunda podsho debdi: Men o'sha joylarni ularga bag'ishladim. Ularning yurti «Xorazm» deb atalsin. Hukmdor badarg'a etilganlarga to'rt yuz nafar turk qizini olib borib tashlashni ham buyuribdi. Muqaddasiy keltirgan bu rivoyatni («xor» va «razm» - «go'sht» Va « o'tin»— Xorazm) akademik S.P.Tolstov, «afsonadan boshqa marsa emas», deya baholaydi¹.

Xo'sh, S.P.Tolstovning o'zi bu borada qanday farazni ilgari suradi? Uning nazarida, «bizni qiziktirayotgan termin asosida etnik nom yotadi, deb faraz qilsak, u holda «Xorazm» («xvarri yoki xarri xalqining eri») so'zi (shunisi diqqatga sazovorki, YOqut XIII asrlardayoq«Xorazm»so'zidagi «r» tashdid ostida, ya'ni ikkilanib o'kilishini ko'rsatib, arab shoiri Asadiyning «Xorazm» so'zi ikkita « r» bilan yozilgan she'ridan parcha keltiradibizni sharqiy yafet qabilalari etnografiyasi olamiga eltadi va Mitanni davlatining asoschilari bo'lgan qabila nomi—«Xurrit» bilan «Xarri» yoki «Xurri» o'rtasida o'xshashlik borligini ko'rsatadi². Hozircha biz yangi eradan avvalgi 3-2 ming yilliklarga (Old Osiyoda tarix maydonida xurritlar paydo bo'lgan davr) oid Xorazm madaniyati to'g'risida juda kam ma'lumotga ega bo'lganimiz sababli bu haqda biror aniq fikr aytish qiyin, lekin Xorazm bilan Mitanni o'rtasida aloqalar bo'lganligi shubhasiz. SHuni qayd qilish lozimki, SHaushatar (1 va 11) nomli mashhur Mitanni podshohlarining ismi bilan Xorazm podshohlarining Abu Rayhon Beruniy keltirgan, Xitoy axborotlari va numizmatika materiallari tasdiqlovchi ro'yxatidagi nom (SHAushafar) o'rtasida hayron qolarli darajada o'xshashlik mavjud.

¹ e-tarix.uz

² Толстов С. П., Қадимги Хоразм маданиятини излаб, Т., 1964; 12 б.

Tilshunos olim Baxtiyor Rizo esa ushbu atamaning kelib chiqishi bo'yicha yangi, o'z shaxsiy farazini ilgari suradi. Ma'lumki, «qo'r» so'zi gulxanning so'nib bitmagan, yangi gulxan yoqishda asqotadigan cho'g', olovning hillanib turgan qoldig'ini bildiradi. Hatto, hozirdayam «yuragida qo'ri bor», «qalbi qo'rini baxsh etdi» singari iboralar ishlatilib, unda qalbni, yurakni otash, yonib turgan gulxanga tenglashtirish mazmuni aks etgan. Tilshunos ana shu «qo'r» so'zi aynan olovni muqaddas deb bilgan zar-dushtiylar bilan bog'liq ekanini ta'kidlab, quyidagicha fikr yuritadi: «Xorazm» so'zi yarim forsiylashgan tarzda «Qo'ri azim», ya'ni Katta gulxan, Bosh gulxan, Asosiy otashgoh mazmunlaridan kelib chiqqan. Ma'lumki, «Qo'r» so'zi turkiycha bo'lsa, «azim» forsiychadir. Buning sababi, Eron Ahamoniylari «Qo'r» so'zini o'zlarining talaffuzida ifodalashgan va unga «azim» so'zini qo'shishgan. SHundan keyin kelgan yunonlar esa bu so'zni forsiylardan o'zlashtirishgan». Albatta, Baxtiyor Rizoning bu fikrlari -«Qo'ri Azim» ham bir ilmiy taxmin, xolos.

Xullas, Xorazm atamasining qaysi talqinini olmaylik, unda voha quyoshli, muqaddas, unumdor zamin sifatida ta'riflanadi. Darhaqiqat, xuddi shunday. Ana shu boisdan ham Qizilqum va Qoraqum oralig'idagi quyoshli o'lkada insoniyat madaniyatining rivojlanish bosqichlari, tamadduni paydo bo'ldi va taraqqiy topdi.

2.3 Xorazm hukidida Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi xaqida ba'zi bir mulohazalar

Arxeologik tadqiqotlar va bizgacha etib kelgan yozma manbalar O'zbekiston va shu jumladan Xorazm diyori qadimgi davlatchilik an'alarining vujudga kelgan o'lkalaridan biridir. Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: "Ilgari ham bir necha bor ta'kidlaganimdek, har bir xalq, jumladan, o'zbek xalqining ham tarixi betakrordir. Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz, xalqimiz ko'hna Xorazm zaminida "Avesto" paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z tarixi bilan yashab keladi".¹

Darhaqiqat, "Avesto" ajdodlarimizning diniy-falsafiy qarashlarini va tushunchalarini o'zida mujassam etgan asargina emas. U biz uchun juda muhim bo'lgan qimmatli tarixiy manba hisoblanadi. Unda Xorazm, O'rta Osiyo, umuman SHarq xalqlarining eng qadimgi tarixi, hayot tarzlari, urf-odatlari, madaniyati, ilmi-fani va boshqa sohalarga doir boy ma'lumotlar mavjud. SHuning uchun ham bu qomusiy asar inson tafakkurining bebaho tarixiy merosi sifatida jahon olimlari tomonidan hozirda juda qadrlanmoqda.

Darhaqiqat, muqaddas "Avesto" kitobi O'rta Osiyo va Eron xalqlarining miloddan avvalgi VII-VI asrlarda paydo bo'lgan eng qadimgi yozma manbalardandir. "Avesto" Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi bo'lish bilan birgalikda, qomusiy asar hamki, unda ajdodlarimizning bebaho tarixi, ijtimoiy – siyosiy hayoti diniy qarashlari, tabiat va jamiyat haqidagi turli bilimlari va tasavvurlari, falsafiy qarashlari, urf – odatlari, turmushi hamda madaniyati o'z aksini topgan.²

Zardushtiylik dini paydo bo'lgan zamin haqidagi bahs uzoq asrlardan buyon davom etib kelmoqda. Zardushtiylik dini paydo bo'lgan ilk zamin va "Avesto" kitobiga asos solingan yurt to'g'risidagi fikrlar ham turlicha. A.Meye va P.Tedesko kabi olimlar zardushtiylikning vatani Parfiya (hozirgi janubiy Turkmaniston va

¹ . И.А.Каримов .Тарихий хотирасиз келажак йўқ // "Туркистон" газетаси. 1998. 4-ноябрь.

² Бобожонов Х., Сотлқов А.. ""Авесто" - бебаҳо маданий мерос". Хоразм. 2001й. 8-бет.

sharqiy Eron) deb faraz qilsalar, Daristerer, Jekson kabi g'arb olimlari zardushtiylikning vatani Atropaten, Xarsfeld esa Midiya deb fikr bildiradilar. X.Nyuberg, E.Benvenist, E.E.Bertels, I.Markvart, Geyger, V.Bartold, YU.A.Rapoport, S.F.Oldenberga, S.P.Tolstov, I.Jabborov, I.Proxorov, B.G'afurov, N.Mallaev va boshqa ko'pgina olimlar zardushtiylik Turon zaminda, xususan, Xorazmda paydo bo'lgan degan fikrdalar.

Zardushtiylik dini haqida fundamental tadqiqotlar olib borgan ingliz olimi Meri Boys zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto"ning qadimgi Xorazm vohasida paydo bo'lganligini alohida qayd etadi.¹

Zardushtiylik ta'limoti va "Avesto"ning Xorazmda paydo bo'lganligi haqidagi faraz B.G'ofurov, N.Mallaev, H.Homidov, A.Qayumov, Y.Jumaboev, F.Sulaymonova, M.Ishoqov, A.Saidov, I.Jabborov, G.Dresvyanskaya, Y.Xo'jamurotov, A.Irisov, M.Qodirov, Ibrohim Karimov, S.Hasanov, Tohir Karimov, Ozod Masharipov, A.Sotliqov, M.Matniyozov, YA.Ollamov, K.Nurjonov, R.Masharipovlarning maqola va tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Buni Qo'yqirilganqal'a, Jonbosqal'a, Tuproqqal'a, Qal'aliqir, Ayozaqal'adan topilgan ibodatxonalar xarobalari ham tasdiqlaydi. Bunga asos sifatida yana shuni ko'rsatish mumkinki, "Avesto"da tilga olingan 16ta yirik hududiy nomlarning to'qqiztasi O'rta Osiyoga taalluqlidir. "Avesto"dagi Urva (Urganch), Ardvi (Amudaryo), Varukash (Orol dengizi) kabi nomlar ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Bundan tashqari Xorazm so'zining o'zi ham "Quyoshli er" ("xvar" – quyosh va "zam" – er) degan ma'noni bildirib, uning quyoshga sig'inuvchi mamlakat bo'lganidan dalolat beradi.²

Avestoshunos olim Tohir Karim o'zining "Muqaddas "Avesto" izidan" nomli kitobida "Avesto"ning YAshtlar qismi va YAsna qismining Goxlarga oid boblarini haqiqatan ham Xorazmda yaratilganini isbotlashga harakat qilib, beshta mantiqiy asosni ilgari surgan. Unda aytilishicha, Zardusht yakka xudolik (Axura Mazda)ni targ'ib qilgan dastlabki joy aynan Amudaryo bo'ylaridagi qavmlar va

¹ Бойс М.. "Зароастрийцы" Верование и обычаи. Наука .Москва.1988. 51-бет.

² Жабборов И., Г.Дресвянская. Духи, святые боги Средней Азии, Тошкент. 1993. 53-бет.

xalqlar yashagan erlar bo‘lib, u”Avesto” kitobida Arianem Vij yoki Arianem Vayjax deb tilga olinadi. Buning ma’nosi “Oriylar yashaydigan maskan”. Keyinchalik bu Ahmoniyalar yoki parfiyaliklar tili –pahlaviycha “Xo- oriy- zamin” yoki “Xo-oriy -zem” ya’ni “ulkan oriylar maskani” shaklida qo‘llanilgan.¹

Zardushtiylikning vatani Xorazm ekanligi to‘g‘risida ko‘pgina xorijiy, ko‘zga ko‘ringan sharqshunos olimlar ham o‘z asarlarida e’tirof etadilar. Xususan, nemis sharqshunos olimi F. Altxaym “Zaratusht beshigi Oksus sohillarida bo‘lgan, uning nomi bilan atalgan din ham o‘sha erdan chiqqan” deb ta’kidlaydi.²

Ammo, professor Ahmadali Asqarov ba’zi arxeologik tadqiqotlariga suyanib, o‘zining “O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” nomli kitobida bu fikrlarni rad etadi. “...fanda otashparastlikning ilk vatani Aryanam Vaychaxdir, u Daitiya etaklarida joylashgan, u joylar “Avesto”da chorva va yaylovlarga boy o‘lka sifatida ta’riflanadi. S.P.Tolstov Daitiya bu Amudaryoning “Avesto”cha nomi bo‘lsa kerak, deb taxmin qiladi. Mana shu farazlar asosida Qadimgi Xorazm ”Avesto”ning vatani bo‘lib qoldi. Aslida esa ezgulik xudosi Axuramazda “yaratgan” birinchi makon Aryanam Vaychahning janubiy sarhadlari Xorazm erlariga borib tutashgan”, - deb yozadi professor A. Asqarov. U Aryanam Vaychaxni Dashti Qipchoq cho‘llari bilan taqqoslashga uringan. -“Avesto”ning eng qadimgi qatlami bo‘lgan gatlarda Xvarizam Sug‘diyona, Baqtriya, Marg‘iyona, Areya, Parfiya, Girkaniya, Xorasmiyalar qatorida eslatilmaydi, u kezlarda S.P.Tolstov ta’kidlaganidek, qadimgi Xorazm chorvaga boy Aryanam Vaychax tarkibida bo‘lib, bu zaminda massegetlar yashar edilar. Afsuski, bu xolatlar hisobga olinmay, qadimgi Xorazmga “Avesto” dastlab tarkib topgan vatan sifatida qaraldi”. “Bu g‘oya – deb fikrini davom ettiradi olim, - o‘tgan asrning 50-yillarigacha ilmiy jamoatchilik tasavvurida shakllanib, rasmiy doiralarda hozirgacha yashab kelmoqda. O‘z davri uchun to‘g‘ri bo‘lgan bu fikrlar arxeologiya fani sohasida keyingi o‘ttiz yil davomida So‘g‘diyona, Baqtriya, Marg‘iyona hududlarida olib

¹ Тоҳир Карим. Муқаддас “Авесто” изидан. –Т.”Чўлпон”, 2000,104-бет.

² Сулаймонова Ф..”Шарқ ва Ғарб”. Т. Ўзбекистон, 1997. 24-бет.

borilgan keng ko‘lamli arxeologik qazishmalarda ilmiy asossiz ekanligi ayon bo‘lib qoldi”.¹

O‘z fikrlarining isboti tariqasida Jarqo‘ton yodgorligidan topilgan ibodatxonani ta’riflaganlar. Olimning bu tadqiqoti uzoq yillar o‘rganilib, bir xulosaga kelingan haqiqatni inkor etishga qodir emas, deb o‘ylaymiz. Ikkinchidan, olim rad qilgan fikrlar 50-yillargacha hukm surgan emas. Hozir ham bu fikrlar “taxminlar” emas, balki tadqiqotlar natijasi ekanligi hammaga ma’lum. “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligiga tayyorgarlik arafasida xalqaro “Oltin meros” jamg‘armasi Xorazm viloyati bo‘limi, Ma’mun akademiyasi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch Davlat Universiteti olimlari, arxeologlar, o‘lkashunoslardan iborat “ “Avesto” qadamjolari bo‘ylab” ilmiy - amaliy ekspeditsiya “Avesto”da nomlari aks etgan yuzdan ziyod qal’alar, qishloqlar, tog‘, daryo va ko‘llardan qariyb 50 tasining toponimik nomlarini qiyoslab o‘rganishdi. Jumladan, Mazdakxon – Mazda makoni, Tuyamo‘yin – Mazdu Boy (Mazda to‘g‘oni), Boshqal’a, Gavurqal’a, Oqshahonqal’a, Tuproqqal’a, CHilpiqqal’a, Xazorasp qal’asi va Xumbuz tepe kovlanib, otashparastlik ramziy belgilari topildi.

“Avesto”da bayon qilingan ma’lumotlar, arxeologiya va etnografiya fanlari yutuqlariga tayangan holda Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimov ham o‘zining qator nutqlarida olimlar o‘rtasida ko‘p yillar davomida bahs va tortishuvlarga sabab bo‘lib kelayotgan “Avesto”ning vatani masalasiga nuqta qo‘yib, Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi “Avesto” Xorazmda yaratilganiga qat’iy xulosa keltirganlar: “O‘zbekiston davlatchiligining tamal toshi bundan 2700 yil muqaddam aynan Xorazm vohasida qo‘yilgan. SHu ma’noda milliy davlatchilгимiz tarixi Misr, Xitoy, Hindiston, YUnoniston, Eron kabi qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi... Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”ham aynan Xorazmda yaratilgani fikrimizning yorqin dalilidir”.²

Xorazm tarixi olimlar tomonidan bugungi kungacha juda katta qiziqish bilan o‘rganilib kelinmoqda. Jumladan, miloddan avvalgi IV asrda Arrian

¹ Асқаров А.. Ўзбек халқининг этногенезиваэтниқ тарихи.Т.2007.,114-115-бетлар.

² Каримов И.А.. Хоразм муқаддас замин. Урганч.2000, 3-бет.

ma'lumotlarida, VIII asrda Tan sulolasi tarixida, arablarning O'rta Osiyo hududlariga kirib kelishi oqibatida Belazuri va Tabari ma'lumotlarida ham keng yoritiladi.

Xorazm hududlarida zardushtiylik dinining paydo bo'lishi va yoyilishi masalasi yuqorida aytganimizdek XX asrning dastlabki davrlarida Markvart, Bartold va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular Ahuramazda yaratgan Aryanam Vayjani Xorazm hududlaridan qidiradilar va Zaratushtrani shu erda tug'ilganligi ta'kidlaydilar hamda Ahmoniylargacha bo'lgan davrda qadimgi So'g'diyona, SHimoliy Afg'oniston, Parfiya davlatlari hududlarida "Katta Xorazm" davlati bo'lganligini ta'kidlaydilar. Lekin, na Bartoldni, na boshqa olimlarning olib borgan tadqiqotlari qanchalik qimmatli bo'lmasin, u arxeologik materiallarga asoslanmagan edi.

Ushbu masalada taniqli arxeolog olim, qadimgi Xorazm tarixining yorqin bilimdoni S.P.Tolstovning Amduryo deltasida olib borgan keng qamrovli arxeologik tadqiqotlari birmuncha salmoqli va asosli fikrlarni olg'a surishga imkon beradi.

S.P.Tolstov rahbarligida 1953 yilda Xorazmning Ko'zaliqir, 1953-1958 yillarda Qal'aliqir yodgorliklarida, 1951-1957 yillarda Qo'yqirilganqal'a yodgorligida olib borgan tadqiqotlari o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan, zardushtiylik dini tarixini o'rganishga juda katta boy moddiy materiallarni berdi¹.

Ushbu materiallar orasida diqqatga sazovori hosildorlik va suv xudosi Ardvisura Anaxita obrazi aks ettirilgan haykalchalardir. O'rta Osiyoda Amudaryo etaklariga jon bag'ishlovchi eng muhim omil bu Amudaryo bo'lib, Xorazmda zardushtiylik ma'budalaridan Ardvisura Anaxita diniy e'tiqodda mashhur ma'budalar sirasiga kirgan. Ardvisura Anaxita hosildorlik, suv, tug'ilish ma'budasi bo'lib, Xorazm hududlarida suv xavfi mavjud bo'lganligi uchun eng oliy ma'buda sifatida ehtirom qilingan.

Masalaning boshqa jihati shundaki, Anaxita obrazi Xorazm diniy e'tiqodida asosiy o'rinni egallasada, O'rta Osiyoning boshqa mintaqalari jumladan, Qadimgi

¹ <http://lib2.znate.ru>

Baqtriya va So'g'diyona uchun Xorazmdagidek xarakterli emas. Chunki, bronza davrida Qadimgi Baqtriyada Ahuramazda olov, quyosh timsolida Jarqo'ton va Dashli ibodatxonalarida yorqin ifodalansa, So'g'diyonada esa olov-quyosh bilan birgalikda Mitra diniy e'tiqodda muhim o'rin egallaydi. Mitra ma'budasini ko'proq madh etilganligini arxeologik materiallarda kuzatamiz. Shuningdek, Eron, Toxariston va Turonning boshqa hududlari aholisi e'tiqodida Ahuramazda timsoli ko'proq o'rin egallaydi. Ma'lumki, Ahmoniylik davlatining paydo bo'lishida zardushtiylik diniy e'tiqodi muhim o'rin tutib, ahmoniy hukmdorlar Zardushtning payg'ambarlik rutbasini o'zlashtirib, o'zlarini Ahuramazda in'om etgan hokimiyat egalari sifatida namoyon etadilar hamda ularning hukmronligi davrida O'rta Osiyoda oliy xudo Ahuramazda diniy e'tiqodi amal qilgan. Lekin zardushtiylik diniy e'tiqod shakli barcha davrda bir xilda bo'lmaganligini hisobga olib, uni yaxlit bir davr sifatida emas, balki turli bosqichlar asosida o'rganish O'rta Osiyo xalqlari diniy e'tiqodida zardushtiylikning tutgan o'rnini maslasidagi ilmiy haqiqatni ochib berishda katta yordam beradi.

Birinchi davr – zardushtiylik diniy e'tiqodining ilk bosqichi, ya'ni bronza davridan ilk temir davrigacha bo'lgan davr. Bu davrda otashparastlik diniy e'tiqodining eng nufuzli e'tiqod ob'ekti sifatida olovga toponish, uni ilohiylashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi davr – otashparastlik diniy e'tiqodi Zaratushtra islohotlari tufayli rasmiy din sifatida shakllanib, uni endi ilmiy adabiyotlarda zardushtiylik dini sifatida o'rganila boshlaydi. Bu mil.av.gi IX asrdan mil.av.gi VI asrlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda garchi oliy hudo Ahuramazda bo'lsada, qadimgi ilohlar pantionida Xorazmda Anaxita, Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona hududlarida Ahuramazda, So'g'diyona hududlarida Mitra obrazi e'tiqodda asosiy o'rin egallaydi.

Uchinchi davr – O'rta Osiyoda ahmoniylik hukmronligining o'rnatilishi va O'rta Osiyo aholisi e'tiqodida Ahuramazdaning asosiy bosh o'ringa chiqishi.

To'rtinchi davr – ahmoniylardan keyingi davrda ellin madaniyatining O'rta Osiyoda zardushtiylik diniy e'tiqodiga ta'siri va assimiliatsiyasi.

Beshinchi davr – islom dini kirib kelgunga qadar bo‘lgan davr. Bunda zardushtiylik diniy e‘tiqodiga budavviylik va boshqa dinlarning o‘zaro ta‘siri asosida o‘ziga xos rivojlanish masalasi¹.

Taklif etilgan ushbu bosqichlar O‘rta Osiyoda zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi masalasida birmuncha ob‘ektiv xulosa chiqarishga imkon beradi. Bugungi kunda Xorazm vohasida zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi va rivojlanishi masalasi olimlar tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilib, ilmiy muomilaga etarli darajada kiritildi. Endigi vazifamiz esa, Qadimgi So‘g‘diyona, Farg‘ona madaniyatlari misolida zardushtiylik dinining tarixini o‘rganish hamda O‘rta Osiyoda zardushtiylik dinining boshqa dinlardan farqli o‘laroq o‘ziga xos tuzilishini va rivojlanish boskichlarini ochib berishdir.

¹ <http://lib2.znate.ru>

Xulosa.

Sunday qilib Qadimgi Xorazmni arxeologik jihatdan o'rgangan S.P. Tolstov ilmiy me'rosini o'rganish natijasida olimning ilm – fanga qo'shgan xissasi bilan tashib chiqdik.

Xorazmning boy tarixini har tomonlama jiddiy tadqiq qilish 1937 yilda SSSR Fanlar Akademiyasining muhbir a'zosi S.P.Tolstov tomonidan «Xorazm arxeologiya - etnografiya ekspeditsiyasi»ga asos solinganidan so'ng boshlangan desak hech mubolag'a bo'lmas.

Fanda «Xorazm ekspeditsiyasi» nomi bilan mashhur bo'lgan bu ilmiy jamoaning alohida a'zolari tomonidan chop etilgan asarlarning qimmati ham beqiyosdir. Jumladan, S.P.Tolstov tomonidan yozilgan «Qadimgi Xorazm» («Древний Хорезм»), «Qadimgi Xorazm madaniyatining izlab» («По следам древне - хорезмской цивилизации»), «Qadimgi Oks va YAKsart daltalari bo'ylab» kabi asarlari dunyoning yigirmadan ortiq tillariga tarjima etilib keng o'quvchilar e'tiboriga tushganligining o'ziyoq tadqiqotning xalqaro ahamiyati naqadar yuksak ekanligidan darak beradi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining ellik yillik yubileyidagi nutqida Prezidentimiz Islom Karimov Rossiya olimlarining O'zbekistonga, o'zbek xalqiga zamonaviy fanni bunyod etish borasida ko'rsatgan yordamlarini alohida ta'kidlab o'tsak arziydi, deb ta'kidlagan edi.¹

Akademik S.P.Tolstovning alohida e'tiborga molik xizmatlaridan yana biri yozma va arxeologik ma'lumotlarni chuqur o'rganib qadimgi Xorazm elati, xususan o'zbek xalqining kelib chiqishi masalasiga aniqlik kiritdi va mutlaqo yangi fikrlarni bayon qildi. Hali yaqingacha tarix fanida, SHarqdan ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar , ayniqsa XV–XVI asrlarda zamon taqozosi bilan Dashti Qipchoq cho'llaridan ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar o'zbek xalqining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi, degan g'ayriilmiy tushunchalar hukmronlik qilib qilib kelgan edi. S.P.Tolstov esa o'z tadqiqotlari bilan o'zbek xalqining asosini sharqdan ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar emas, balki shu ko'hna

¹ И.Жобборов. Антик маданият ва маънавият хазинаси. Т. «Ўзбекистон». 1999, 15-бет.

maskanda ming yillar davomida o'troq hayot kechirib kelgan erli xalq – xorazmiylar, sug'diylar, toxarlar, baqtriyaliklar hamda Amu va Sirdaryo bo'ylarida azaldan yashab chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan massaget - shaklar tashkil etganligini isbot qildi.¹

Insoniyat hamisha g'oyasidan, mafkurasi va ta'lomatidan qat'i nazar, o'tmish merosning taraqqiyotiga xizmat qiladigan jihatlari va omillarini o'rganadi. Unga ehtiyoj sezadi. Uni asrab-avaylaydi. Zotan, har qanday tsivilizatsiya g'oyalar, mafkuralar va ta'limotlar to'qnashuvidan, ular orqali olamni anglash, idrok etishdan boshlanadi. Ana shu nuqtai nazardan ham "Avesto"ning bugungi mustaqillik sharoitimizdagi ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, falsafiy va mantiqiy ahamiyati katta.

O'zbekiston Respublikasi hukumatning qarori bilan 2001 yilda «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlandi. «Avesto» vatani Xorazmda bog' barpo qilindi, asarning o'zbek tilidagi tarjimalari chop etildi, u haqda yangi tadqiqotlar yuzaga chiqdi. Mazdayasna dini miloddan avval 1500 yillarda Hazrati Zardusht Payghambar taraflaridan asos solingandir.

S.P.Tolstovning Xorazmga qiziqishiga yana bir muhim sabab bor edi. Uzoq vaqtlar g'arb fani SHarq tarixini haddan tashqari chalkashtirib, sharq xalqlari progressiv taraqqiyotini inkor etuvchi, SHarq mamlakatlari azaldan sira bartaraf qilib bo'lmaydigan turg'unlikka mahkumdir, degan soxta da'volar tarqatgan edi. S.P.Tolstov sharq xalqlari ham murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tganliklarini, ular ham ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarni boshidan kechirganliklarini, tarix sharq boshqa-yu, g'arb boshqa degan gapni bilmasligini isbotlash uchun zo'r umidlar bilan Xorazmga yo'l oladi.

S.P.Tolstov bu o'lkani sevar, uning tarixiy qimmatini yaxshi tushunar edi. "Qadimgi Xorazm" degan monumental asarida shunday deb yozadi: "Bu ekspeditsiya muallifning kelajakda qiladigan ishlarining yo'nalishini belgilab berdi. Xilma-xil tasodifiy vazifalar uning e'tiborini har qancha chalg'itmasin, bari

¹ С.П.Толстов. Ўзбекистоннинг қадимги маданияти. Тошкент. "Фан". 1944, 5-бет.

bir o'ziga xos O'rta Osiyo "Misri"ning tarixi, etnografiyasi va arxeologiyasi bilan qiziqdi¹.

¹ Толстов С. П., Древний Хорезм, М., 1448; с. 18.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., 1998 й. 7 – б.
2. Каримов И.А.. Хоразм муқаддас замин. Урганч.2000,
3. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т.: Шарқ, 2000.
4. Асқаров А.. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи.Т.2007.,114-115-бетлар.
5. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Т.: Уқитувчи, 2001.
6. Бобожонов Х., Сотлиқов А..””Авесто” - бебаҳо маданий мерос”. Хоразм.2001й.
7. Бойс М.. “Зороастрийцы” Верование и обычаи. Наука .Москва.1988. 51-бет.
8. Кой-Крылган-кала — памятник куль-турм древнего Хорезма IV в. До н.э. — IV в.н.э. (отв. ред. .П.Толстов, Б.И.Вайнберг), М , 1967.
9. Жабборов И., Г.Дресвянская. Духи, святые боги Средней Азии, Тошкент. 1993.
- 10.Жабборов И.. Антик маданият ва маънавият хазинаси. Т. “Ўзбекистон”. 1999, 15-бет.
- 11.М.Matniyazov. Xorazm tarixi – Urganch, “Xorazm”, 2004 у
- 12.Сотлиқов А., Абдуллаев О.. Қомусий илм соҳиби. “Илм сарчашмалари” журнали 2007 й
- 13.Сафарбоев М.. Хоразм кашшофи. “Мозийдан садо” журнали . 2000 й. 2 сон.
- 14.Сулаймонова Ф..”Шарқ ва Ғарб”. Т. Ўзбекистон, 1997.
- 15.Саидкулов Т.С. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1993.
- 16.Толстов С. П., По следам древнехорезмийской цивилизации, М., 1948.
- 17.Толстов С. П ., Древний Хорезм, М., 1948, с. 22
- 18.Толстов С.П.. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т. “Фан”.1964, 7-бет.

19. Толстов С.П.. Ўзбекистоннинг қадимги маданияти. Тошкент. “Фан”. 1944, 5-бет.
20. Толстов С.П., По древним дельтам Окса и Яксарта, М., 1962.
21. Тоҳир Карим. Муқаддас “Авесто” изидан. –Т.”Чўлпон”, 2000, 104-бет.
22. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти Т., – Т 1-12., 2001
23. Ғуломов Я. Ғ., Хоразмнинг суғорилиш тарихи, Т., 1959. 49-52 б.
24. Ягодин В. Н., Поселение амирабадской культуры Кават 2, Материалы Хорезмской экспедиции, вып. 6, М., 1963.
25. Халимов Н., Памятники Ургенча, Ашхабад, 1991. с. 33.
26. Хоразм тарихи. 1 ва 2-жилд. –Урганч, 1997.
27. <http://lib2.znate.ru>
28. e-tarix.uz


Ilyustratsiyalar




S.P. Tolstov.








Jonbos-4.



КОЙ-КРЫЛГАН-КАЛА

ПЛАН



ПРИМЕЧАНИЕ
 План стрелковой галереи
 центрального здания сделан
 по основанию бойниц



Tagisken.



Quyqurilgan qal'a.



Qo'rg'oshin qal'a.



Ayoq qal'a.